

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACCHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**«MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM  
METODIKALARI» KAFEDRASI**

**“TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI” FANINING  
MAJMUASI**

**(Boshlang'ich sinf o'qituvchisi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta  
tayyorlash kurslari uchun)**



**SAMARQAND- 2023**

*Ushbu ishchi o‘quv majmua milliy markaz Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 31-avgustdagи 4-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.*

**Tuzuvchilar:**

**Tuzuvchi:**

**K.Suvanova** - Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “ Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasи, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Taqrizchilar:**

**prof.D.E.Omonov** - O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi kafedrasи mudiri.

## KIRISH

Ushbu ishchi o‘quv majmua O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son, “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmonlar va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son, “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chara-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarorlari, hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son buyrug‘I ijrosini ta’minalash maqsadida, belgilangan ustivor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olib, xalq ta’limi tizimi xodimlariga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, qayta tayyorlashning samarali usullarini joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan.

### Fanning maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad:** Fanning asosiy maqsadi – “**Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi**” fanlari umumiyligi o‘rtacha ta’limdagisi tasviriy san’at fani mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish, o‘quvchilarda shu fan bo‘yicha puxta bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metodik vositalarni tanlashda boshlang‘ich o‘qituvchilariga yordam berishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta’lim sohasida ham bo‘layotgan inqilobiy o‘zgarishlar mutaxassislarga yangi funksional talablarni qo‘ya boshladidi. Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o‘zining bevosa xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko‘nikmalar talab qilinadi va mutaxassis o‘qitish metodlari va yo‘llari bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lishi, o‘qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo‘llari va vositalarini bilishi lozim. Tinglovchilarining bu bilimlarni puxta egallashiga yordam berish.

**Fanning vazifalari:** - Boshlang‘ich sinflarda umumiyligi o‘rtacha ta’lim muassasalarini uchun tasviriy san’at bo‘yicha mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, shu fanlarning hozirgi davrda erishgan yutuqlaridan xabardor qilish, o‘qitishning eng samarali usullarini amaliyotga tatbiq qilishni ko‘rsatib berish, tasviriy san’at va chizmachilikning o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari bilan tanishtirish va didaktika fani nazariyasi bilan ta’lim amaliyoti aloqasini ta’minalash, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy va mustaqil fikr yuritish

ko‘nikmalarini rivojlantirish, san’at va chizmachilik o‘quvchilarining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatish. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o‘qitishning maqsad va vazifalari, fanning mazmuni va tuzilishi, o‘qitishning metod va tashkiliy shakllari, vositalarini tanlash va ishlab chiqish, boshqa fanlar bilan aloqasi, mavzularning mazmuni va ularning ketma-kelligi, tushunchalarni shakllantirish yo‘llari, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar, tasviriy, grafik va amaliy topshiriqlar mazmuni va o‘rnii kabi masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

### **Fan bo‘yicha tinglovchilarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar**

“Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida tinglovchi: Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasipedagogika fanlarining asosiy rivojlanish qonuniyatlari va kasbiy faoliyatda bazaviy ahamiyatiga ega bo‘lgan fan tarmoqlarini ***bilishi kerak;***

- kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashda an’anaviy va yangi kiritilgan ta’lim metodlaridan foydalanish; zamonaviy maktab boshlang‘ich sinflarida didaktika va o‘qitish metodikasining alohida xususiyatlarini ko‘rsatib berish va joriy etish; bolalar qiziqish, ehtiyojlarini shakllantirish, motivlarni rivojlantirish faoliyatlarini ularni shaxs sifatida shakllantirish;
- har bir o‘quvchini sinf-dars tizimi sharoitlarida individual ishlarini boshqarish vositalarini, zamonaviy o‘qitish yangi texnologiyalari vositasini amaliyatga tatbiq etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

- ta’lim - tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarini; didaktika ta’lim-tarbiya nazariyasi sifatida;
- ta’lim texnologiyasi; ta’lim nazariyasi mazmuni, tamoyillari, tarbiya shakli, tarbiya texnologiyasi; ta’lim-tarbiya integrasiyasi metodlari, ularni turkumlashtirish, umumiyl tushuncha, qonunlar asosida klassifikasiyalash;
- ta’limni o‘qitishni va tarbiyani integrasiyalashtirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiya, o‘quv faoliyatini faollashtirish;

#### ***Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi:***

- ta’lim va tarbiyaga integrativ yondashuv mohiyati; boshlang‘ich ta’lim fanlarining xususiyatlari; pedagogik jarayon rivojlanuvchan ekanligini ***bilishi kerak;***
- boshlang‘ich sinflarda o‘quv integrasiyasi metodlarini qo‘llash; boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarni umumiyl va xususiy jihatlarini farqlash va rejulashtirish; o‘quvchilarda integrasiya asosida yagona bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan tafakkur turlarini rivojlantirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;***
- grafikasi bo‘yicha mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy,
- raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, shu fanlarning hozirgi davrda erishgan

- yutuqlaridan xabardor qilish, o'qitishning eng samarali usullarini amaliyotga tatbiq qilishni ko'rsatib berish, tasviriy san'at va chizmachilikning o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bilan tanishtirish va didaktika fani nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, san'at va chizmachilik o'quvchilarining qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish.

- Tasviriy san'at metodikasini o'qitishning maqsad va vazifalari, fanning mazmuni va tuzilishi, o'qitishning metod va tashkiliy shakllari, vositalarini tanlash va ishlab chiqish, boshqa fanlar bilan aloqasi, mavzularning mazmuni va ularning ketma-kelligi, tushunchalarni shakllantirish yo'llari, ko'rgazmali qurollardan

- foydalanish bo'yicha tavsiyalar, tasviriy, grafik va amaliy topshiriqlar mazmuni va o'rni kabi masalalarini ham o'z ichiga oladi.

- foydalanish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi:**

- pedagogik innovasiyalar ta'lim jarayonida innovatsiyalardan foydalanish;
- o'qituvchi innovation faoliyatini rivojlantirish muammolari va shakllanish tahlili asoslari bo'lgan pedagogik innovasiya yangi tadqiqot yo'nalishlarini **bilishi kerak;**
- novatsiya, navatorlik, innovatsiya, innovatsion jarayon, o'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil etish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

#### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi**

Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun uzviylikda zarur bo'lgan boshqa o'quv fanlar quyidagilar: Tasviriy san'at metodikasi" fani barcha tasviriy va amaliy san'atga oid "Qalamtasvir", "Rangtasvir", "Kompozitsiya", "Haykaltaroshlik", "Tasviriy san'at tarixi" va boshqa fanlar hamda muhandislik grafikasiga oid - "Chizma geometriya", "Chizmachilik" "Kompyuter grafikasi" va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, fiziologiya u pedagogika-psixologiya fanlarining nazariy va amaliy xulosalariga tayanadi. Shu bilan birga tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining umumiy va xususiy metodikasi uchun nazariy va amaliy asos hisoblanadi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi matematika, botanika, biologiya, geografiya, zoologiya, fizika, mehnat fanlari bilan bevosita bog'liq holda olib boriladi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

"Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" faniga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan; interfaol metodlar mavzularida o'tkaziladigan

amaliy, tajriba mashg‘ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash, aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

### Fanning ta’limdagi o‘rni

“Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi” fani pedagogik fanlardan biri bo‘lib, tinglovchilarni umumiyl o‘rtta ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’limda pedagogik faoliyatni yuritish, boshlang‘ich ta’limda pedagogika va boshlang‘ich ta’limning metodologik, ilmiy muammolari, texnologiyalarini tadqiq qilish, xalq ta’limi tizimida, ta’lim muassasalarida rahbarlik vazifalarini bajarishi mumkin.

### Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Tinglovchilarning “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarini tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, kompyuter diagrammalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. O‘quv jarayonini tashkil qilish turlari va shakllari; ta’lim va tarbiya metodlari; uslubiy-tarqatma materiallardan (treninglar, psixo-pedagogik test to‘siriqlari) foydalaniladi.

### ASOSIY QISM

№	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Ajratilgan o‘quv soatlari hajmi</b>		<b>Ja mi</b>
		<b>O‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish</b>	<b>Kontakt sessiyalardagi (hududiy markazda gi) mashg‘ulotlar</b>	
1	Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi fani, uning maqsad va vazifalari.	2		
2	Chet ellarda tasviriy san’atni o‘qitish tarixidan	2		
3	Tasviriy san’atni o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarining zamonaviy ta’limi.	2		
4	Tasviriy san’at va chizmachilik o‘qituvchilariga o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat yuritish bo‘yicha tavsiyalar	2		

5	Tasviriy san'at va chizmachilik fani mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish	2		
6	Rossiyada qalamtasvirni o'qitish metodlari	2		
7	O'rta osiyo va o'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi	2		
8	Mustaqillik yillardagi tasviriy san'atni o'qitilishi.	2		
9	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi dasturini o'rganish va rejalashtirish.		2	
10	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tavvorlash.		2	
11	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.	2		
12	Pedagogik tasvirlar ishslash.	2		
13	Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.		2	
14	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlaridan namunaviy darsini tashkil etish	2		
15	Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.	2		
16	Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi.		2	
17	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash.	2		
18	Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasidan darsdan tashqari ishlar	2		
<b>Jami</b>		<b>28</b>	<b>8</b>	<b>36</b>

### NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

## **1-mavzu. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fani, uning maqsad va vazifalari.**

Metodika. Umumiy metodika. Xususiy metodika. Amaliy metodika. O'qitish metodlari (Nutqiy, namoyish etish, amaliy ish). Umumiy o'rta ta'lismaktablarida tasviriy san'at fanining o'rni va maqsadi. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi yuzasidan zarur adabiyotlar va ular bilan ishlash usullari.

## **2-mavzu. Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan**

Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixi haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish.

## **3-mavzu. Tasviriy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.**

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilariga o'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash ulardan foydalanish asosida dars jarayonlarida tadbiq qilish .

## **4-mavzu. Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilariga o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat yuritish bo'yicha tavsiyalar (2 soat M.O')**

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilariga o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat yuritish,tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisining kasbiy kompitensiyasi .

## **5-mavzu. Tasviriy san'at va chizmachilik fani mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish**

Tasviriy san'at va chizmachilik fani darslarini tashkil qilish, dars tiplari haqida ma'lumot berish.

## **6-mavzu. Rossiyada qalamtasvirni o'qitish metodlari.**

Natural va gyeomyetal myetodlari. I.D. Pryeyslyer, A.G. Sapojnikov, P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiy larning tasviriy san'at o'qitish myetodlari.

## **7-mavzu. O'rta osiyo va o'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.**

Sharq miniatyura maktablarining tarixi va ularning o'qitish myetodlari. K.Byeqzod va uning naqqoshlik maktabi. So'qd rangtasviri va uning O'rta Osiyodagi miniatyura maktablariga ta'siri. Mo'qul (Boburiylar) rangtasvir miniatyurasi qamda ularning o'ziga xos xususiyatlari. Xozirgi zamon tasviriy san'atida miniatyura janr iva ishslash usullari (Ch.Ahmarov).

## **8-mavzu. Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.**

Innovasion ta'linda mualliflik maktablarining rivojlanishi. Innovasion pedagogika tushunchasi. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'naliishlari. Refleksiv-innovasion texnologiyalar. An'anaviy va innovasion ta'limga qiyosiy tahlili. Innovatsion faoliyat – ta'limga sifatining kafolatidir. Boshlang'ich ta'linda innovatsion dars o'quv tarbiya ishining asosiy shakli ekanligi.

## **9-mavzu. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi dasturini o'rghanish va rejalashtirish.**

Amaliy mashg‘ulotining ish mazmuni va vazifalari va tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi dasturini o‘rganish va rejalashtirish haqida ma’lumot berish, metodika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada mukammallashtirish.

#### **10-mavzu. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash**

Mashg‘ulot turlariga dars bayonini bajarish tartibi haqida ma’lumotlar berish. - tasviriy san’at dars turlariga bayonini va ishlanmasini ishslash usullari bilan tanishtirib borish.. Amaliy mashg‘ulotlarini bajarish tartibi haqida ma’lumotlar berish. Tasviriy san’at fan yo‘nalishidagi qalam, rang va boshqa fanlarga oid ko‘rsatmali va tarqatmali o‘quv quollarini tayyorlash usullari bilan tanishtirib borish.

#### **11-mavzu. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulot turlariga ko‘rgazmali quollar tayyorlash.**

Amaliy mashg‘ulotlarini bajarish tartibi haqida ma’lumotlar berish. Tasviriy san’at fan yo‘nalishidagi qalam, rang va boshqa fanlarga oid ko‘rsatmali va tarqatmali o‘quv quollarini tayyorlash usullari bilan tanishtirib borish.

#### **12-mavzu. Pedagogik tasvirlar ishslash.**

Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida pedagogik tasvirlar ishslash to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar berish. Amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik tasvirlar bo‘yicha o‘qituvchi albomini yaratish.

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Pedagogik tasvirlar amaliy mashg‘ulotlari haqida umumiylar metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

#### **13-mavzu. Tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish.**

Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini tahlili to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar berish. Amaliy mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini mazmun mohiyatiga qarab ilmiy o‘rganib chiqish.

#### **14-mavzu. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlaridan namunaviy darsini tashkil etish va o‘tkazish.**

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Amaliy mashg‘ulotlari haqida umumiylar metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida namunaviy darsini tashkil etish va o‘tkazish tug‘risida umumiylar ma’lumotlar berish.

#### **15-mavzu. Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplar.**

Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san’atni o‘qitishdagi ahamiyati haqida tushuncha berish. Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

## **16-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda tasviriylar san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi.**

Boshlang‘ich sinflarda tasviriylar san’at o‘qitish nazariyasi haqida tushunchalar berish. Naturaga qarab rasm ishlash mashg‘ulotlari metodikasi haqida tushunchalar berish. Boshlang‘ich sinflarda o‘ziga qarab haykal ishslash metodikasi haqida ma’lumot beriladi.

## **17-mavzu. Tasviriylar san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash.**

O‘quvchilar tasviriylar faoliyatlarini nazorat qilish turlari haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari haqida ma’lumotlar beriladi.

## **18-mavzu. Tasviriylar san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan darsdan tashqari ishlari**

Maktabda tasviriylar va amaliy san’atdan to‘garaklar haqida ma’lumotga ega bo’ladi. Tasviriylar va amaliy san’atdan sinfdan tashqari tadbirlar haqida ma’lumot oladi.

## MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI. (2 soat M.O', 2 soat K.S)**

### TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASINING MODELI

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Kirish-ma'ruza
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	Kirish. 1. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasining maqsadi. 2. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasini o'qitish metodlari. 3. Amaliy va xususiy metodika.
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b>	Tinglovchilar umumiy o'rta ta'lif maktablari boshlang'ich tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>- Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasining maqsadi va vazifalari haqida tushunchalar beradi.</li><li>- Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasini o'qitish metodlari haqida ma'lumot berish.</li><li>- Amaliy va xususiy metodika haqida tushunchalar beriladi.</li></ul>
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Ma'ruzani og'zaki bayon qilish, «Qanday diagramasi», «BBB» jadvali.
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproyektor, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar.

<b>O'qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol javobli so'rov, o'quv topshiriq.

### MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Tinglovchi</b>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	1.1. Ma'ruzaning mavzu, rejasi e'lon qilinadi, o'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifasi va o'quv faoliyat natijalari tushuntiriladi.  (1-ilova)	1.1. Tinglaydi eshitadi mavzu-ning nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. (2-ilova).	Yozib oladi.
<b>2- bosqich. Asosiy jarayon (60 min.)</b>	<p>2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova).</p> <p>2.2. Ma'ruza bo'yicha "Qanday?" va "Zinamazingina", usulidan foydalangan holda qo'yidagi savol bilan murojaat qiladi: "Tasviriy san'at o'qitish metodikasining qanday usullarini bilasiz" (3.1-ilova).</p> <p>Ma'ruza bo'yicha BBB jadvali bo'yicha Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: "Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi haqida nimalarni bilasiz? yoki Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fani haqida nimalarni bilishni xohlaysiz?" (4.1-ilova)</p> <p>2.3. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza kiladi. Ma'ruza bo'yicha BBB jadvali bo'yicha Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Amaliy metodika va xususiy</p>	2.1. Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.

	metodikasi haqida nimalarni bilasiz?	
	2.4. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fani tug'risida umumiy ma'lumot, uning amaliy san'atda tutgan o'rni haqidagi masalalarini yoritishda "Jamoada ishslash" orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "Aqliy hujum" texnikasidan foydalangan holda guruhga topshiriqlar beradi. (5-ilova). Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi.  Fikrlarini tinglab umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
<b>3-bosqich Yakuniy (10 min.)</b>	3.1. Mavzuga bo'yincha umumiy xulosa qilinadi.	Eshitadi, tinglaydi.
	3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilar baholanadi.	Yozib oladi.
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-ilova).	Javob beradi.
	3.4. Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigani mavzuni e'lon qiladi.	Yozib oladi.

## 1-ilova

**Mavzu:** Kirish. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fani, uning maqsadi va vazifalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

### R e j a

1. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.
2. Umumiy va xususiy metodikaning asosiy bosqichlari.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish, uning boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatish, fanga qiziqishini oshirish.

**O'quv faoliyatining natijasi:** Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalarini o'zlashtiradi, tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi to'g'risida ma'lumotlar oladi, tasviriy san'atning assosiy rivojlanish

manbalari bilan yaqindan tanishadi, umumiy va xususiy metodikasi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar oladi va kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

**Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi o‘quv fanining maqsadi** barkamol, komil insonni, ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllan-tirishdir.

Tasviriy san’at o‘quv predmeti har bir inson uchun zarur bo‘lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o‘quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo‘ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san’at asarlari bilan muzey, ko‘rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko‘pchilik o‘quvchilar o‘zlarining kelajak hayotlarida ma’lum miqdorda rasm ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me’morlar uchungina emas, u o‘qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o‘z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so‘z bilan tushuntirib bo‘lmaydigan o‘z g‘oya va fikrlarini tasvirlab ko‘rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma’noni bildirmaydi.

**Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlari-ning vazifalari** shartli ravishda ikki qismdan iborat:

1. Tasviriy san’at darslarining o‘ziga xos maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o‘rgatish; estetik va badiiy didni o‘stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyanı rivojlantirish; tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozisiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me’morchilik san’at asarlarini tushungan holda o‘qiy olishga o‘rgatish; san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish, uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish.

2. Tasviriy san’at darslarining qo‘shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yullah.

Tasviriy san’at o‘quv fanining maqsadi va vazifalari o‘qitiladigan deyarli barcha o‘quv fanlari bilan bog‘lanadi va ular yuzasidan materiallarni o‘zlashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, u o‘qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at - fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishslash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma’lumki, mакtabda o‘qitishning xilma-xil metodlari qo‘llaniladi. Bu yerda ta’lim usuli, o‘quv

materiallarining joylashishi (o'quv, reja, dastur), ta'lif prinsiplari va yana (so'ngida), o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiyligi maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Tasviriy san'at o'qitish metodlari deganda o'qituvchining o'quvchilar bilan ishslash usullari natijasida o'quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o'qitish metodlari o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzida ta'lif maqsadiga, o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog'liq.

### 3.1 – ilova

#### “Qanday” organayzerini to‘ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.

#### ZINAMA - ZINA TEXNOLOGIYaSI

1.	" <b>Metod</b> " so'zi grekcha bo'lib, "Tadqiqot yo'li" "bilish usuli ma'nosini anglatadi. Pedagogik o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallahida, ularning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.
2.	<b>Metodika</b> so'zi avvalo ta'lif va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma'nosini bildiradi, mazkur darslik umumta'lif maktablarining boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasining bir qator jihatlari ko'rib chiqiladi.
3.	<b>"Usul"</b> iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. O'qitish usuli – bu ta'lif-tarbiyada alohida qismi hisoblanadi, ularning yig'indisi o'qitish metodlariga kiradi. Umumiy yo'nalishga qaratilgan ma'lum bir o'qitish metodlari va usullarining majmuasidan o'qitish tizimi tuziladi.
4.	<b>Umumiy metodika</b> - o'quv fanning nazariy qismini asoslariga qarashli savollarni va ko'pchilik fanlarga tegishli o'qitish usul va uslublarini qo'llanishlarini ko'rib chiqadi. Bular quyidagilar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari;</li> <li>- tasviriy san'at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni;</li> <li>- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish;</li> <li>- ko'rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o'quv ko'rgazmali qurollar va texnik vositalari):</li> <li>- tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix):</li> </ul>

		- tushunchalarni, iboralarni ta'riflash va boshqalar.
5.		<p><b>Xususiy metodika</b> – biron-bir o'quv fanining o'qitish uslubi nazarda tutiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ko'rgazmali qurollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi;</li> <li>- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va x.k.</li> </ul>

Hozirgi kundagi rasm o'rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Respublikamizda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarning ahamiyati juda katta o'rinn tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari ko'rsatilgan va Tinglovchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, o'qitish san'atini egallashiga yordam berishni o'ziga asosiy maqsad qilib qo'ygan.

## **2-MAVZU. CHET ELLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH TARIXIDAN .**

### **TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Vizual ma'ruza
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Misr maktablarida tasviriy san'at.</li> <li>2. Yunondagi Sikion, Efess va Fivan maktablarining o'qitish usullari.</li> <li>3. Uyg'onish davrida tasviriy san'atning rivojlanishi, Chennini, Alberti va Leonardo da Vinci, Dyurer kabi rassomlarning fikrlari va tasviriy san'atga qo'shgan hissasi.</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi</b> - Misr, Yunoniston, Rim maktablarida tasviriy san'at o'qitish usullari. Uyg'onish davrida tasviriy san'at o'kitish metodlari haqida ma'lumot berish.	

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Misr, Yunoniston, Rim mакtablarida tasviriy san'atni o'qitilish haqida ma'lumot berish.</li> <li>- Yunondagi Sikion, Efess va Fivan mакtablarining o'qitish usullari haqida tushunchalar berish.</li> <li>- Uyg'onish davrida tasviriy san'atning rivojlanishi, buyuk rassomlarning fikrlari va tasviriy san'atga qo'shgan hissasi haqida tushunchalar beriladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Misr, Yunoniston, Rim mакtablarida tasviriy san'at o'qitish usullari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi;</li> <li>- Yunondagi Sikion, Efess va Fivan mакtablarining o'qitish usullari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.</li> <li>- Uyg'onish davrida tasviriy san'atning rivojlanishi, ularning qo'shgan xissalari haqida ma'lumot oladi.</li> </ul>
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma'ruba, og'zaki bayon qilish, "Qanday" diagramasi, «B\B\B» jadvali.
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproyektor, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar.
<b>O'qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.

### MA'RUA MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Bosqichla r vaqtি</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Pedagog</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi (1- ilova).	1.1. Tinglaydi, mavzuni yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. (2- ilova)	Yozib oladi.

<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(60 min.)</b>	<p><b>2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova).</b> Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: (4 ilova).</p> <p>- Misr, Yunoniston, Rim maktablarida tasviriy san'at o'qitish usullari haqida nimalarni bilasiz ?</p> <p><b>2.2. O'qituvchi ikkinchi punkti rejasi bo'yicha vizual material-lardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi (3-ilova).</b> Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: «Yunondagi Sikion, Efess va Fivan maktablarining o'qitish usullari qanday?» (6-ilova)</p> <p><b>2.3. “B/B/B” usulidan foydalangan holda guruhlarga topshiriq beradi (5-ilova).</b> Guruhlarda ishslashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi, fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.</p>	<p>2.1. Eshitadi. Yozadi va savolga javob beradi.</p> <p>2.2. Yozadi va savolga javob beradi.</p> <p>2.3. Savollarga javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadi va jadvalni to'ldiradi.</p>
<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>(10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag'batlantiradi. Faol Tinglovchilar baholanadi. Uyga vazifa beriladi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, o'z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqnini yozib oladi.</p>

**Mavzu: Kirish. Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan.**

**R ye j a**

- 1.** Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixi to‘g‘risida umumiy ma'lumotlar berish.
- 2.** Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanida ketma ketlik usullari.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixi haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

**2-ilova.**

**Vizual materiallar**

**Misr. Yunoniston. Rim.** Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi **Misr** va Yunonistonda eramizdan avvalgi III-asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog‘ qoyalariga o‘yib ishlangan haykallar, shuningdek, rangtasvir asarlari o‘zining yuksak badiyiliqi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Kishilar o‘z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo‘llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o‘tkazib kelganlar. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o‘rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi.

Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug‘ullanib kelganliklari ko‘proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o‘rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlari ma'lum maydon yuzasini o‘lchash va uni qog‘ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo‘lishlari talab etilgan.

Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, harfni o‘rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan.

Bolalarni rasm chizishga o‘rgatishda qo‘lni erkin harakat qilishiga alohida e’tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog‘ozlarda bajarilgan.




Bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan. Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki yog'och bilan kaltaklangan.

Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor-yo'qligi ma'lum bo'lmasa-da, ayrim rasm chizish qoidalari qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lcham, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan"<sup>1</sup>.

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi **Yunonistonda** ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yagan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'l bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.



Eramizdan avvalgi 432 yilda Yunon haykaltaroshi Poliklet inson tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida "Dorifor" haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'limgan maktablarda o'rgatildi.

Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalari ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi.

Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida Sikion maktabi katta rol o'ynagan. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.


<sup>1</sup> Альберти Л. Три книги о живописи. Москва, 1933. стр. 40.

Bu maktabni bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo‘lgan. Pamfil rasm chizishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib bergen. Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: “Uning sa’yi harakati bilan avval Sikionda, so‘ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o‘rgatish lozimligi belgilab qo‘yilgan. Boshlang‘ich ta’lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi.”

#### ***Ilova 4***

#### ***Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunuvchi “Qanday” diagrammasi***


Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va  
«Qanday» savoli oraqali muammo hal qilinadi.



**Uyg‘onish davri.** Uyg‘onish davrida Italiya tasviriy san’ati va uni o‘qitish metodi katta rol o‘ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta’lim beradigan o‘quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e’tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san’at o‘rtasidagi aloqlalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o‘rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko‘ra naturaga qarab rasm ishslash o‘qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinci tasviriy san'atni o'qitish metodikasi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining "Kniga o jivopisi" nomli ishida rassomlikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaraydi. U ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uyg'onish davrining nemis rassomlaridan A.Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi. Uning fikricha, har qanday buyum, narsalar asosida geometrik jism shakli yotadi. Shuning uchun u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik jism shaklini chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, Chistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. Xozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q.




Uyg'onish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, ular tasviriy san'atda anatomiya, perspektiva, yorug'-soyaning benihoyatda katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada san'at asarlari o'zining yuksak badiiyligi va haqqoniyligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan bo'ldi.

Shunga qaramasdan tasviriy san'atni o'qitish tizimini yaratish ularga nasib etmadni. Bu muammolar, asosan, XVI asrdan boshlab yechimini topa boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni yengillashtiradi. Bunday akademiyalar Florensiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtarda bunday maktablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, endi davlat va jamoalar ham bunga o'z ulushlarini qo'shaboshlagan edilar. Bu o'quv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya ko'proq iz qoldirdi. Ular yaratgan o'qitish tizimida o'quv materiallarini qisqa vaqtda o'zlashtirish, o'quvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun va qoidalari asosida rasm ishslash malakalarini hosil qilish asosiy o'rinni egalladi.

Bu rassom-o'qituvchilar o'zlaridan avval o'tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, Tinglovchilarni shu asosda o'qitishga harakat qildilar.

Ular o‘z faoliyatlarida yorug‘-soya, kolorit, rang, konstruksiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e’tibor berdilar.



Ayrim tarixiy va san’atshunoslik ma’lumotlariga qaraganda A.Dyurer tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo’llanmalar yaratilgan. Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos.

Akademik tizimiga ko‘ra jiddiy ilmiy bilimlarsiz rasm ishlashni o‘rganib bo‘lmaydi. Bolalar rasm chizish orqali borliqni bilib boradilar. Bu sifat har bir shaxs uchun, u qaysi sohaning mutaxassisini ekanligidan qat’iy nazar zarur deb hisoblandi.

### **3-Mavzu: Tasviriy san’atni o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarining zamonaviy ta’limi.**

<i>Vaqti – 2 soat</i>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>O‘qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o‘rni.</li> <li>Tabaqlashtirib o‘qitishning mohiyati va uning turlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari.</li> <li>O‘quvchilar bilan tabaqlashtirilgan holda dars o‘tish metodikasi.</li> </ol>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	Tasviriy san’atni o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarining zamonaviy ta’limi haqida ma’lumot berish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiya-larning o'rni haqida tushuncha berish.</li> <li>- Tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati va uning turlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari haqida ma'lumot berish.</li> <li>- O'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan holda dars o'tish metodikasi haqida ma'lumot beriladi.</li> </ul>	<p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladi;</li> <li>- Tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati va turlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari haqida ma'lumot oladi;</li> <li>- O'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan holda dars o'tish metodikasining ahamiyati haqida ma'lumot oladi;</li> </ul>
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma'ruza, og'zaki bayon qilish, «Qanday» diagrammasi, «B\B\B» jadvali.
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproyektor, ko'rgazmali plakatlar.
<b>O'qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.

### MAShG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Bosqichlar vaqtি</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Pedagog</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. (2-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</p> <p>1.2. Yozib oladi.</p>

<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(60 min.)</b>	<p><b>2.1.</b> Mavzu rejasining birinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. O‘qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o‘rni haqida tushuncha beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: O‘qituvchi faoliyatida qanday zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin? (3-ilova).</p> <p><b>2.2. <i>O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda rejaning ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruzani bayon etishni davom etadi (4-ilova).</i></b> Tabaqalashtirib o‘qitishning mohiyati va uning turlari, uning ijobiy va salbiy jihatlari haqida Tinglovchilarga tushuncha beradi; Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tabaqalashtirib o‘qitishning qanday turlari va uning qanday ijobiy va salbiy jihatlari mavjud? (<b>5-ilova</b>).</p> <p><b>2.3.</b> Mavzu rejasining uchinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. (6-ilova). O‘quvchilar bilan tabaqlashtirilgan holda dars o‘tish metodikasi haqida ma’lumot beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: O‘quvchilar bilan tabaqlashtirilgan holda dars o‘tishning qanday metodikasi mavjud ? (6-ilova).</p>	<p>2.1. O‘ylaydi, javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Yozadi, savolga javob beradi.</p> <p>2.3. Yozadi, savolga javob beradi.</p>
<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>(10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag‘batlantiradi. Faol Tinglovchilar baholanadi (2-ilova).</p> <p>3.3 O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova).</p>	<p>3.1. Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p> <p>3.3. Javob yozadi.</p>

## **Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.**

### **R e j a**

1. O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o'rni, mohiyati va turlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar berish.
2. Darajali va ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish va o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan holda dars o'tish metodikasining ketma-ketligi.

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Tasviriy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish.

### **VIZUAL MATERIALLAR**

Tasviriy san'at o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini tinimsiz o'rganib boradi. Bunda quydagilar nazarda tutiladi: 1. Tashhis ta'lim asosida ish yuritish. 2. Texnika vositalaridan keng foydalanish. 3. Modulli o'qitish metodini biliш. 4. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish, bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish. 5. Ta'limga individual va tabaqalashtirilgan holda yondoshish. 6. Darslarni munozarali o'yin va musobaqa tarzida o'tkazish va boshq.

Ilg'or tajribani o'rganib, undan o'z faoliyatida ayrim jihatlaridan foydalanish mumkin. Chunki, maktabni har bir sinfda olib borilayotgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda, avvalo o'z sohasini yaxshi bilishiga bog'liq. Bunda quydagilar nazarda tutiladi: -tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining tarixi va nazariyasini biliш; -o'zbek san'atining milliy, badiiy an'analari yuzasidan chuqr bilimlarga ega bo'lish; -tasviriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda uni muntazam takomillashtirib borish; -tasviriy san'atning pedagogik-psixologik asoslari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish; -tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ilg'or zamonaviy texnologiyalarni chuqr egallagan bo'lish; -tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining biron bir janrlari bo'yicha ijodiy ishlar bilan shug'ullanish; -o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga doir tajriba-sinov, ilmiy-metodik ishlar bilan shug'ullanish; -tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir tajribalarni muntazam o'rganib borish; -tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, san'atshunoslikka doir adabiyotlarni va tadqiqot natijalarini muntazam o'rganib borish; -maktabda o'qitiladigan barcha fanlardan (ayniqsa, adabiyot, tarix, biologiya, chizmachilik, mehnat va b.) ta'lim mazmuni bilan tanish bo'lishi kerak.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda noan’anaviy metodlarni qo‘llash, uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish har bir pedagog uchun mas’uliyatli vazifadir.

O‘qituvchi tomonidan har bir dars jarayoni loyihalashtirib olinishi kerak. Bunda o‘qituvchi darsni texnologik xaritasini tuzadi, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o‘quvchilarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Misol tariqasida loyihalashtirilgan texnologik xaritasini tavsiya qilamiz.

## **TEXNOLOGIK XARITA**

### **Naqsh turlari va ulardan kompozisiyalar tuzish, Mavzu ranglash va pardozlash.**

**Maqsad:** O‘quvchilarga naqsh turlari (islimi, girix, gulli girix va h.k) va ularning o‘ziga xosligi haqida ma’lumot berish, ularni turli shaklda naqsh kompozisiyalari tuzishga o‘rgatish.

**Maqsad va vazifalar** **Vazifalari:** - O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish na kengashirish.

- Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.

**O‘quv mashg‘ulotining mazmuni** Naqsh kompozisiyasi haqida tushuncha. O‘simpliksimon naqsh kompozisiyalarni tuzish qoidalari. Naqsh elementlari yig‘indisidan turli shaklda naqsh kompozisiyalari tuzish, naqsh kompozisiyasini sifatli ranglash va pardozlash.

**O‘quv mashg‘ulotining texnologiyasi** **Uslub:** og‘zaki bayon qilish, «Blis-so‘rov» usuli, «Zinima-zina» va «Charxpalak» texnologiyalari.

**Shakl:** Suhbat-munozara, amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash.

**Usullar:** slayd – taqdimoti namoyishi usuli.

**Vositalar:** Tarqatma materiallar, adabiyotlar va albomlar, ijodiy materiallar.

**Nazorat qilish:** Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish.

**Baholash:** Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash

***O‘qituvchi uchun:***

Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiha erishadi. Tinglovchilar faolligini oshiradi. Tinglovchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir mashg‘ulot jarayonida barcha Tinglovchilarni baholaydi. O‘quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o‘rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o‘rgatadi.

***O‘qituvchi:***

Pedagogik tsxnologiyalarni o‘zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomil-lashtirish. O‘z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqyealar bilan bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish.

***Talaba uchun:***

Naqsh turlari (islimi, girix, gulli girix va h.k) va ularning o‘ziga xosligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, turli shaklda naqsh kompozisiyalari tuzish, ranglash va pardozlashga o‘rganadi.

Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish va baholashni o‘rganadi.

***O‘quvchi:***

Matn bilan mustaqil ishlashni o‘rganadi. Fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo‘srimcha materiallar topadi, ularni o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

**Kutiladigan natijalar**

**Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)**

O‘quv jarayonida o‘quvchilar o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish natijasiga erishish o‘quv jarayonida innovasion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. Texnologiyalar juda xilmoxildir. Biz ulardan misol tariqasida ba’zilarini tashkil etish va ularni o‘tkazish tartibi haqida to‘xtalamiz.

«Blis-so‘rov» usuli o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyatini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan.

### «BLIS - SO‘ROV» USULI

Nº	Mavzu: Naqshlarni ranglash tartibi	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
1.	Gul, barg, shobarg, bargli gul va marg‘ula elementlariga rang beriladi			<b>4</b>		
2.	Novda elementlariga rang beriladi			<b>3</b>		
3.	Naqsh zaminiga rang beriladi			<b>1</b>		
4.	Naqshdagi turli shakllarga rang beriladi			<b>2</b>		
5.	Bofta va shkifta elementlariga rang beriladi			<b>5</b>		

**Baholash mezoni: 3 - to‘g‘ri javob – «qoniqarli»; 4- to‘g‘ri javob – «yaxshi»; 5 - to‘g‘ri javob – «a’lo»**

O‘quvchilarni dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishda ifodalay olishga o‘rgatishda «Zinama-zina» texnologiyasi katta natijalar beradi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan yakka holda yoki guruhchalarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

### ZINAMA-ZINA TEXNOLOGIYASI

### HOSHIYA NAQSHI



1.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, ya’ni hoshiya naqsh. Uning o‘lchami ko‘pincha 14-20 sm atrofida bo‘ladi. Hoshiya naqsh turli xil bo‘lib, uning mexrobga, xonaga ishlanishiga qarab lo‘la hoshiya, ishkom va boshqa turlari bo‘ladi.

## **MUNABBAT NAQShI**

2.



Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki to'rtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalanila-di. Uning o'simliksimon, geometrik va boshqa kompozision turlari mavjud.

3.



4.



## **TURUNJ NAQShI**

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon. Naqshlarda kompozisiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Turunj hyech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozisiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyitilgan.

## **NAMOYO N NAQShI**


Namoyon - forscha ko'rinish, manzara demakdir. Namoyon hyech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozisiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyonlar simmetrik va assimmetrik tuzilishga ega bo'ladi.

O'quvchilarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berish, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarni qo'llash, ularni mustaqil erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshishga undaydi. Shuningdek, kelajakda ilmiy va ijodiy ishlarni tashkil etishda va tadqiqot ishlarini olib borishda, eng asosiysi, ta'lim olishga, fanga va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini hamda ustozlarga nisbatan hurmat hissini oshiradi.

**4 - ilova**

## VIZUAL MATERIALLAR

Maktabda tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirilgan ta'limga muhim ahamiyat kasb etadi.



### TASVIRIY SAN'ATNI TABAQALASHTIRIB O'QITISH

Tabaqalashtirilgan ta'limga o'quvchilarni individual tarzda, shuningdek, guruhlarga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha o'quvchilar bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati,

layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi.

Ma'lumki, o'quvchilarning qobiliyatları, fanga qiziqishlari, psixologik va estetik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosda tashkil etilayotgan metodika hamma o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada, o'quvchilar o'quv materiallarini bir xil o'zlashtirmaydilar. Bundan bolalarga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatilganda ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi muammosi paydo bo'ladi. Uning samarali yo'llaridan biri ta'limga tabaqlashtirilgan yondoshuvdir.

Ayrim pedagog olimlarning asarlarida tabaqlashtirilgan ta'limning mohiyati, uning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilib berilgan, ayrim ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilari esa bo'sh o'zlashtiruvchi yoki qoloq o'quvchilar bilan individual ishslash bo'yicha tajriba to'plaganlar.

Pedagogika nazariyasida pedagog olimlar tomonidan tabaqlashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi: 1. Darajali tabaqlashtirish. 2. Ixtisoslashtirilgan tabaqlashtirish.

Darajali tabaqlashtirish ikki turga bo'linadi:

1. Individual ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi.

2. Guruhli ta'lim. Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlarga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqlashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, turli kasblarga yo'naltirish yoki ularni asoslarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan maktablar (sinflar), fakultativlar, to'garaklar kiradi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida tasviriy san'atdan tabaqlashtirilgan ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- tabaqlashtirilgan maktablar ta'limi;
- tabaqlashtirilgan sinflar ta'limi;
- tabaqlashtirilgan guruhlar ta'limi;
- individuallashtirilgan ta'lim.

Bu yo'nalishlar ham darajali, ham ixtisoslashtirilgan bo'lishi mumkin. Ko'p yillardan buyon pedagogik amaliyotda boshqa fanlar qatori taviriy san'atdan ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar, fakultativ kurslar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Tabaqlashtirilgan ta'lim haqida fikr yuritganda avvalo uni ham ijobjiy va salbiy jihatlari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishlik nihoyatda muhim. Darajali tabaqlashtirib o'qitishning ijobjiy jihatlari haqida to'xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim. Bunda:

1. Sinfdag'i barcha o'quvchilar dastur materiallarini o'zlashtirishga erishadilar.
2. Sinfdag'i barcha o'quvchilarning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi va u o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.
3. Sinfdag'i barcha o'quvchilarning faolligi oshadi. Chunki, past o'zlashtiruvchilar guruhidagi har bir bola yuqori o'zlashtiruvchilar guruhiga o'tishga harakat qiladi. Yuqori o'zlashtiruvchilar guruhidagi bolalar esa past o'zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslik uchun harakat qiladilar.

4.O‘quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirishga zo‘riqish hollari ro‘y bermaydi.

5. Sinfdagagi iqtidorli o‘quvchilarning chuqur va atroficha bilimlar olishga bo‘lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.

6. Tabaqalashtirilgan ta’lim uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

Ko‘pchilik mutaxassislar o‘quvchilarni (past, o‘rta, yuqori) o‘zlashtiruvchi bolalar guruuhlariga ajratib o‘qitishning ma’qullagan holda, uni yuqori, shuningdek, past o‘zlashtiruvchi bolalar faoliyatlarida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham qayd qilishadi. Xususan, ular yuqori o‘zlashtiruvchi bolalarda manmanlik, boshqalardan o‘zlarini ustun qo‘yish yoki ularni mensimaslik, o‘ziga ortiqcha baho berish, boshqalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish kabi xislatlarda kuzatilishini qayd qilishadi. Shu bilan birga bu toifadagi bolalarda qo‘rquv qissi ham paydo bo‘ladi. Chunki, ular topshiriqlarni yuqori darajada bajarmaganliklari oqibatida yuqori guruhdan quyi guruhga tushib qolishlari ham mumkin.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar esa tabaqalashgan guruhlarda o‘zlarini kamsitilgan, o‘quvi yo‘q deb hisoblaydilar. Ko‘pincha tengdoshlari, aka-uka, ota-onalari orasida o‘zlarini aqli kalta bolalardek his etadilar. Natijada ular tushkunlikka tushib, o‘qishga havaslari qaytadi. Sinfdoshlariga qo‘silmay, ular bolalarga aralashmaydigan odamovi bo‘lib qoladilar. Bora-bora bu toifadagi o‘quvchilarga o‘qituvchi, ota-onalar, sinfdoshlari tomonidan bildiriladigan turli tanbeh va dashnomlari ularning ruhiyatiga yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada, bu hol ularni hamma narsaga, har qanday gaplarga befarq bo‘lib qolishlari va rivojlanishdan to‘xtab qolishlariga olib keladi. O‘qituvchi tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirishga kirishar ekan, uning yuqorida qayd qilingan ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga to‘g‘ri yondoshib ish olib borishi kerak bo‘ladi.

Masalaning ana shu nozik jihatlarini hisobga olib, bolalarni guruhga ajratganda sinfdagi qobiliyatli, qobiliyatsiz, o‘zlashtiruvchi, o‘zlashtirmovchi, yuqori, quyi so‘zlarining o‘rniga oddiygina qilib birinchi, ikkinchi, uchinchi guruuhlar deb qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Tabaqalashtirib o‘qitishning samarasini katta ekanligi bilan bir qatorda uning murakkab jihatlari ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o‘qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg‘ulot olib borishi bilan bog‘liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san’atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo‘ladikim, atarsiz mashg‘ulotlarni talablar darajasida tashkil etib bo‘lmaydi. Bu esa quyidagi yo‘nalishlarda ifodalananadi:

1. Tabaqalashtirilgan tasviriy san’at ta’limini ilmiy asoslarini puxta egallagan bo‘lishlik.

2. Mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan o‘quv- metodik majmualar bilan qurollangan bo‘lishlik.

3. Mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan maxsus xona va moddiy-texnikaviy bazaga ega bo‘lishlik.

4. O‘qituvchi o‘z fanidan o‘quvchilarni bilim va malakalari saviyasi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishligi v.b.

Muammoning qiyin va murakkab jihatlaridan biri bu o‘qituvchining o‘quvchilar haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlidir. Ma’lumki, har bir shaxs, o‘zicha bir dunyo, shu qatori tasviriy san’atdan bilim malakalari ham bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga bolalardagi o‘ziga xoslik shunchalik turli-tumanki, ularni aniqlash nihoyatda mushkul.

Bolalarni har jihatdan bilish uchun o‘qituvchi tomonidan bolalar orasida pedagogik va psixologik tashxis o‘tkazishi zarur bo‘ladi. Bu ish bevosita quyidagilar bilan bog‘liq: o‘quvchining umumiy qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi va ularni qaysi darajada bilishi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasini, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg‘ulotlar uchun bo‘lgan shart-sharoitlari v.b. Tashhisda o‘quvchilarni sog‘ligi va fiziologik o‘sishini bilish ham foydadan holi emas.

Yuqorida qayd qilingan sifatlar bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘z fanidan o‘quvchining tasviriy san’atga doir xususiyatlarini ham bilishi kerak bo‘ladi. Bu borada o‘qituvchi dars jarayonida har bir bolaning bilim va malakalaridagi o‘sishni ham bilib turishi zarur.

O‘quvchini bilim va malakasidagi rivojlanish darajasiga qarab bilim berish yana shuning uchun ham muhimki, bunda zaruriyat tug‘ilganda o‘quvchilarni u guruhdan bu guruhgaga o‘tkazish imkonini beradi.

Darajali tabaqlashtirib o‘qitishning yana bir ko‘rinishi mavjud bo‘lib, unda bolalarni fanlar bo‘yicha bilim va malakalarining darajasiga qarab emas, balki umumiy tarzda tabaqlashtirilishidir. Bunda bolalarni temperamenti asosiy rol o‘ynaydi. Bunday sifatlar bo‘yicha tabaqlashtirilganda bolalar xoleriklar, sangvinlar, flegmatiklar va melonxoliklar guruhlaridan tashkil topadi.

Chunki, o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarga topshiriqlar berganda, biron narsani talab qilganda, ularning psixologik xususiyatlariga tayanish samarali kechadi. Ishning saviyasi ko‘p jihatdan bolalarni ana shu sifatlarini bilib, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlikka bog‘liqdir.

O‘qituvchi bolalarning diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, his-tuyg‘ulari, xarakteri haqida ham tasavvurga ega bo‘lishi talab etiladi.

O‘quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatları, qiziqishlari, idroklarini hisobga olib o‘tkaziladigan pedagogik **tashhis ishlari** quyidagi tashkiliy ishlar bilan bog‘liq:

- o‘quvchilar bilimlarini aniqlash uchun test materiallarini tayyorlash;
- o‘quvchilarning bilim va malakalarini aniqlash uchun anketa va savolnomalar tayyorlash;
- o‘quvchilarni bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarni bilim va malakalarini aniqlashga doir didaktik materiallar tayyorlash;

O‘quvchilarning bilim va malakalarini **tashhis etish** bilan masalaning yechimi tugamaydi. Yangi materialni bayon etish va uni o‘quvchilar tomonidan to‘liq o‘zlashtirilishi uchun tegishli metodika zarur bo‘ladi. Bu bosqichning muhim

jihatlaridan biri tashhisdan o'tgan guruhlarda o'quvchilarning tasviriy san'atdan bilimlar hajmi va darajasini aniqlashdir. Gap shundaki, yangi mavzuni idrok etishga guruhdagi barcha o'quvchilar tayyormi yoki yo'qmi, axir guruhdagi barcha bolalarning bilim va malakalari bir xil emasku?! Bir guruhdagi bir o'quvchi ikkinchisiga qaraganda ozmi, ko'pmi kengroq va chuqurroq bilimga ega. Shunday ekan, guruhdagi barcha bolalarni o'qituvchi yangi materialni idrok etishi va o'zlashtirishi uchun tayyorlashi lozim bo'ladi.

Tabaqalashtirish faqat guruhlar bo'yicha emas, har bir o'quvchi bilan ham yakkama-yakka ish olib borishni ham nazarda tutadi. U dars jarayonida, uyga topshiriqlar berganda amalga oshiriladi. Shuningdek, individual ta'lim faqat bo'sh o'zlashtiruvchi bolalar bilan ishslashni emas, bir yo'la iqtidorli, qobiliyatli bolalar bilan ishslashni ham nazarda tutadi.

Maktabda tasviriy san'atdan darajali tabaqalashtirishning ikki yo'nalishi tavsija etiladi:

1.O'quvchilarning idroki va qobiliyatini hisobga olib tabaqalashtirish. Bu yo'nalishga bolalarni o'qituvchi tavsija etadi.

2.O'quvchilarni qiziqishiga qarab tabaqalashtirish. Bunda guruhlarni bolalarning o'zлari tanlaydilar.

Maktabda bolalarning tasviriy san'atga qiziqishi, idroki, qibiliyatlarini hisobga olib, ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Idroki past, bilim va tushunchalarni sekin va qiyin o'zlashtiruvchi bolalar, ularni o'qishga havasi yo'q va qobiliyati qoniqarli emas, ijodkorlik hislatlari sezilmaydi.

2. O'qishga havasi va qobiliyati o'rtacha, nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ijodkorligi o'rtacha.

3. O'qishga havasi, ijodiy qobiliyati va fantaziyasi kuchli, berilayotgan bilimlarni tez va puxta idrok eta oladilar.

Mana shu xususiyatlar asosida tasviriy san'atdan ta'lim mazmuni tabaqalashtiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u uch toifaga bo'linadi:

1. Dasturning minimum darajasi. U tasviriy san'at o'quv predmetidan ta'limning davlat standartlarida belgilangan bilimlarni nazarda tutadi. Ta'lim mazmunining bu toifasida bolalarning bilim va malakalari, ijodiy qibiliyatlarini o'stirish minimum darajada bo'ladi.

2. Dasturning o'rtacha darajasi. Tasviriy san'atdan beriladigan bilimlar va malakalar ta'limning davlat standartlarida ko'rsatilgan minimum darajadan yuqori bo'ladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va fantaziyani talab etadigan topshiriqlar minimum darajada qoladi.

3. Dasturning yuqori darajasi. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning idroki, qibiliyatini hisobga olgan holda ularga keng bilim va chuqur malakalar beradigan, ularning ijodkorligini, iste'dodini ro'yobga chiqaradigan mashg'ulotlardan tashkil topadi.

Ma'lumki, darajali tabaqalashtirishning ikki yo'li mavjud:

1. Bir sinf o'quvchilaridan ikki va undan ortiq guruh tashkil etib o'qitish.

2. Maktabdagi bir necha parallel sinf o‘quvchilaridan quyi, o‘rta va yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar sinflarini tashkil etib o‘qitish.

Ta’limning ikkinchi yo‘li o‘qituvchiga unchalik katta qiyinchilik tug‘dirmasada, birinchi yo‘li katta mas’uliyat talab etadi. U ancha murakkab jarayon bo‘lib, bunda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi uch guruh bilan ish olib borishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi uch xil ta’lim mazmuni, dastur va darsliklar, turli-tuman didaktik materiallar va turli metodikalardan foydalananadi.

O‘quvchilarni tabaqlashtirib o‘qitishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘quvchilarni mustaqil ishlarini to‘g‘ri amalga oshirishga bog‘liq. Bolalar topshiriqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lganlaridagina bu boradagi ishlar samarali kechadi. Tabaqlashtirib o‘qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tasviriy san’atdan mustaqil ishlarni quyidagi shakllarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. Tarqatma materiallar bilan ishlash. 2. Darslik bilan ishlash. 3. Kompyuter bilan ishlash. 4. Ijodiy ishlarni bajarish. 5. Kitob o‘qish. 6. Mashg‘ulotlar mavzusiga doir sayohat qilish. 7. Ota-on, mutaxassis, do‘st-dugonalar bilan suhbat va munozaralar qilish. 8. Topishmoq va krossvordlar yechish v.b.

Shuni ham qayd qilish lozimki, tabaqlashtirilgan sinf va guruhlarda har bir guruh uchun tuzilgan ta’lim mazmuniga mos metodika qo‘llaniladi. Ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda barcha guruh bolalari bilan mashg‘ulotlar frontal, shuningdek, guruhli yoki individual holda amalga oshirilishi mumkin.

Tabaqlashtirilgan guruhlarga topshiriqlar turli shakl va turli mazmunda ham tavsiya etiladi. Ularning asosiy shakllari:

1. Har bir guruhga tasviriy san’atdan alohida mazmun yoki mavzularda topshiriqlar tavsiya etish.

2. Bir necha guruhga bir xil mazmun yoki mavzuda, biroq turli murakkablikda topshiriqlar tavsiya etish. Yagona mavzuda topshiriq berilganda uni uch toifadagi o‘quvchilar guruhiga uch xil murakkablikda tavsiya etiladi.

3. Guruhlarning ayrimlarida tasviriy san’atdan nazariy, boshqasida amaliy xarakterdagi mashg‘ulotlar olib borish.

4. Ayrim guruhlarga o‘quvchilarning to‘la mustaqil ishlari uchun topshiriqlar berilsa, boshqalariga o‘qituvchining ishtirokida bajariladigan vazifalar tavsiya etiladi.

5. Tabaqlashtirilgan guruhlarning ba’zilarida rangtasvir, boshqalariga haykaltaroshlik yoki san’atshunoslik asoslari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazsa bo‘ladi.

6. Ayrim guruhlarda yangi material bayon etilsa boshqasida o‘tilganlarini qaytarish ham mumkin.

7. O‘qituvchi topshiriqlarni bir necha variantlarda tavsiya etadi, o‘quvchilar ulardan o‘zlariga ma’quli va kuchlari yetadiganini tanlab oladilar.

8. Ayrim guruhlar bilan mashg‘ulotlarni sinfda boshqalar bilan sinfdan tashqarida amalga oshirish.

9. Zaruriyat tug‘ilganda bolalar erkin mavzularda ish bajarishlari ham mumkin.

Tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirishda birinchidan, bolalarga tasviriyo san’atdan beriladigan bilim va malakalarning dozasi, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, o‘quvchining bu topshiriqni bajarishga bo‘lgan layoqatini o‘qituvchi tomonidan aniq tasavvur etilishi lozim. Ikkinchidan, ta’lim mazmunini bolalar ongiga singdirish uchun metodikani to‘g‘ri tanlash hamda bu metodikani amalga oshirishga xizmat qiladigan moddiy-texnikaviy asosning yaratish muhimdir.

Buning uchun o‘qituvchi avvaldan darsga puxta tayyorgarlik ko‘rgan, unis senariysi atroficha va chuqur ishlab chiqqan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga har bir darsda bolalarning bilim va malakalaridagi o‘zgarishlarni bilib turish ham ahamiyatlidir. Tabaqalashtirilgan ta’limda yangi bilimlarni bolalar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish uchun avvaldan ularni tayyorlash lozim va bunga o‘quvchi to‘la ishonch hosil qilgandan so‘ng yangi mavzuni bayoniga o‘tishi lozim.

#### **4-mavzu. Tasviriyo san’at va chizmachilik o‘qituvchilariga o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat yuritish bo‘yicha tavsiyalar (2 soat M.O’)**

O‘qituvchilik kasbi barcha kasblar ichida eng ulug‘ kasblardan biridir. Har qanday kasb egasini birinchi katta hayotga taylorlovchi ham bu o‘qituvchidir. Dunyodagi eng ulug‘ insonlarni ham shu darajalarga yetaklovchi o‘qituvchilardir. Ta’lim muassasasi o‘qituvchilik layoqatini egallash uchun o‘ziga xos boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim muassasalaridan mutaxassislar kasbiy faoliyat ko‘rsatish jarayoniga yo‘l oladi. Kasbiy faoliyat jarayoni yuqori darajadagi kompetensiyaga ega bo‘lgan kadrning istiqboldagi hayot yo‘lini belgilaydi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar kasbiy layoqatni egallash bilan bir qatorda, bo‘lajak o‘quvchilari bilan muloqotga kirishish tajribasini ham o‘zlashtiradi. O‘qituvchi ham o‘zining mutaxasisligini chuqur egallagan bo‘lishi, boshqa fanlarni ham yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Ta’lim berish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik sifatlari tarkib topadi. Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat o‘qitishning innovatsion metodlarini o‘zlashtiradi, balki yangi bilimlarni o‘zlashtirish usullarini ham bilib oladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi qanday shart-sharoitlarga bog‘liqligi asoslاب berilishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchining istiqboldagi kasbiy mahorati, ijodkorligi ta’lim jarayonida uning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq.

Har qanday shaxs kasbiy bilimning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o‘zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to‘ldirishi lozim bo‘ladi. Bunday tajribalarni bo‘lajak o‘qituvchi oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O‘qituvchi shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘z kasbiy faoliyatini davomida ijodkorligini namoyon eta oladi. Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo‘naltirilganligini to‘laqonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtayi nazaridan yondashish kerak. Shuningdek, shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsiyati va

faoliyatiga bo‘lgan talablar bilan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajalari orasida sezilarli ziddiyatlar mavjud. Shu jumladan, o‘qituvchilar tayyorlashning mavjud tizimi bilan bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining shaxsiy ijodiy xarakteri orasida ham nomutanosibliklar kuzatilib kelinmoqda. Pedagogik ta’limga nisbatan texnokratik hamda ekstensiv yondashuvlardan to‘la xoli bo‘lmaslik natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar uzoq vaqt mobaynida jamiyat hayoti va xalq madaniyatidan sun‘iy tarzda uzoqlashtirildi. Buning natijasida o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar orasida to‘silalar va bo‘shliq vujudga keldi, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi yakka hukmronligi qaror topdi. Ular, asosan, o‘quv dasturlari va darsliklarga bog‘lanib qolishi natijasida ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy mavqe va obro‘siga putur yetkazdi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi jamiyat ehtiyojlari va uning o‘tkir muammolaridan uzoqlashgan edi. Ta’lim tizimidagi o‘quv jarayoni Tinglovchilarining inson va jamiyat, tarix va madaniyat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, tayanch fundamental bilimlarni egallah, ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, kasbiy pedagogik bilim asoslarini singdirish, pedagogik ijodiylikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, u bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim olish va ijodiy pedagogik faoliyatini davom ettirish huquqini ta’minalashdan ham iborat. Yuqoridaqilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga xos pedagogik yo‘nalishi uning kasbiga bo‘lgan munosabatining o‘ziga xosligi bo‘lib, bunday kadrlar o‘quvchilarga ham, o‘ziga ham pedagogik jarayonning subyekti sifatida ijodiy yondasha oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik shartiuni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iborat. O‘qituvchining o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmetlariga bo‘lgan munosabati o‘quvchilarning o‘quv predmetiga bo‘lgan munosabati va o‘quv jarayoni oldiga qo‘ygan maqsadga erishishga bo‘lgan intilishida o‘z aksini topadi. O‘quvchilarga bo‘lgan munosabat ularga oliy qadriyat sifatida yondashish, ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga intilish, jamoaviy maqsadlarga erishishga intilish yo‘lida o‘qituvchidan ijodiy faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining o‘zining kasbiy ijodiy faoliyatiga bo‘lgan munosabati uning qadriyatli yo‘nalishlarini egallaganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Bugungi kunda oliy ta’lim muasasalarining ba’zi o‘qituvchilar hozirgi kunda xam, eskicha qarashlardan voz kechmay ta’lim sohasiga yangi inovatsiyalarni joriy etilishiga to‘sinqlik qilib kelayotganlari xam uchraydi. Har qanday fan o‘qituvchisi o‘zining mutaxasisligi bo‘yticha izlanmasa o‘rganmasa bo‘lajak kadrlarni salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishishiga salbiy ta’sir ko‘rsataveradi.

Xulosa o‘rnida shuni misol qilib ko‘rsatmoqchimiz. Chizmachilik va chizma geometriya fanlari misolida zamонавиу texnologiyalardan foydalanib talaba va o‘рганувчиларга fazoviy tessavurlarini rivojlantirish, berilgan grafik masalalarni yaxshi tushunishi uchun turli detallarning fazoviy xolatlarini ko‘rsatish orqali maqsadga erishishishlarini ko‘rib chiqamiz, (1-rasm a,b,).

Birinchi va ikkinchi yaniy, (1-rasm a,b va 2-rasm a,b,c,d) misolimizda berilgan detallning fazoviy xolti va uning qirqimi to‘g‘risida ma'lumot berildi. Talaba va

o‘rganuvchilar bu misllar orqali ijodiy yana xam ko‘proq yondashishiga qo‘srimcha topshirqlarni bajarishga turki bo‘ladi. Shu tariqa, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish ko‘ptarmoqli va ko‘pbosqichli jarayon hisoblanadi. Bu hodisa ko‘p jihatdan bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Mazkur shart-sharoitlarning bajarilishi natijasida Tinglovchilarda ijodkorlik tarbiyalanadi va rivojlantiriladi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchining psixologik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## **6-MAVZU. ROSSIYADA QALAMTASVIRNI O‘QITISH METODLARI TA’LIM BERISH TEXNOLOGIYaSINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	Kirish ma’ruzasi
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	1. Natural va geometrial metodlar. 2. A.Sapojnikov, D.Kardovskiy va I.Preyslerning tasviriy san’at o‘qitish metodlari. 3. P.Chistyakovning pedagogik qarashlari.
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Tinglovchilarni umumiy o‘rta ta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida kasb ta’lim fani bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari bilan quollantirish. Rossiya qalamtasvirni o‘qitish metodlari, pedagogik qarashlar haqida ma’lumot berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Natural va geometrial metodlar haqida tushunchalar berish.</li> <li>- A.Sapojnikov, D.Kardovskiy va I.Preyslerning tasviriy san’at o‘qitish metodlari haqida ma’lumotlar berish.</li> <li>- P.Chistyakovning pedagogik qarashlari haqida ma’lumot beriladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Natural va geometrial metodlar haqida ma’lumot oladi.</li> <li>- A.Sapojnikov, D.Kardovskiy va I.Preysler rassom-pedagoglar haqida ma’lumot oladi.</li> <li>- P.Chistyakovning pedagogik qarashlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi;</li> </ul>
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Ma’ruzani og‘zaki bayon qilish, «Qanday diagrammasi», «B/B/B» jadvali.
<b>O‘qitish vositalari</b>	O‘quv uslubiy kompleks, o‘quv qo‘llanma, videoproyektor, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali plakatlar.

<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishslash.
<b>O‘qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Kuzatish, og‘zaki nazorat, savol javobli so‘rov, o‘quv topshiriq.

### **MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI**

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	1.1. Ma’ruzaning mavzu, rejasi e’lon qilinadi, o‘quv mashg’ulotining maqsadi, vazifasi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiriladi. (1-ilova)	1.1. Tinglaydi eshitadi mavzuning nomini yozib oladi
	1.2. Mashg’ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. (2-ilova).	Yozib oladi.
<b>2-bosqich. Asosiy jarayon (60 min.)</b>	<p>2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo‘yicha ma’ruza qiladi (3-ilova).</p> <p>2.2. Ma’ruza bo‘yicha ”Zinama-zina” va ”Qanday?”, usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Rossiyada qalamtasvirni metodlari va ular qanday metodlar ? (3.1-ilova).</p> <p>2.3. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kaladi. (4-ilova). Ma’ruza bo‘yicha B/B/B jadvali bo‘yicha Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Metodlari haqida nimalarni bilasiz? yoki Rassom-pedagoglar haqida nimalarni bilishni hohlaysiz?” (4.1-ilova).</p>	<p>2.1. Eshitadi, Yozadi, savollarga javob beradi.</p> <p>2.2. Eshitadi, Yozadi, savollarga javob beradi.</p> <p>2.3. Eshitadi, Yozadi, savollarga javob beradi.</p>

	2.4. Rossiyada qalamtasvirni o‘rgatilishi tug‘risida umumiylumot, uning metodlari haqidagi masalalarni yoritishda “Jamoada ishlash” orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. ”Aqliy hujum” texnikasidan foydalangan holda guruhga topshiriqlar beradi. (5-ilova). Qo‘sishimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Fikrlarini tinglab umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
<b>3-bosqich Yakuniy (10 min.)</b>	3.1.Mavzuga bo‘yincha umumiylumot xulosa qilinadi.	Eshitadi, tinglaydi.
	3.2.Faol ishtirok etgan Tinglovchilar baholanadi.	Yozib oladi.
	3.3 O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-ilova).	Javob beradi.
	3.4.Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi.	Yozib oladi.

## 1-ilova

### Mavzu: Kirish. Rossiyada qalamtasvirni o‘qitish metodlari.

#### R e j a

1. Rossiyada rasm chizish metodlari to‘g‘risida umumiylumotlar.
2. Rossiya rassom-pedagoglar qarashlari va maktablarini o‘qitish usullari.

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Rossiyada rasm chizish metodlari haqida ma’lumot berish, uning rassom-pedagoglar qarashlari va maktablarini o‘qitish usullarini ko‘rsatish, fanga qiziqishini oshirish.

**O‘quv faoliyatining natijasi:** Rossiya maktablarida qalamtasvirni o‘qitish metodlari to‘g‘risida umumiylumotlar oladi va kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

1725 yilda dengiz Akademiyasida tasviriy san'at o'quv fani bo'lib xizmatqiladi. 1731 yili esa Kardovskiy mакtabida o'kuv fani sifatida o'qitiladi. 1920 yili Rossiya ilmiy akademiyasida Kareyjekni bilish «Bundan foyda bor» shiori ostida rasm ishlash mashqi olg'a suriladi. Shunday qilib, rasm umumta'lim fanlari qatorida o'qitila boshlanadi. 1732 yildan boshlab Kadet Korpusida, 1747 yildan ilmiy akademiya gimnaziyasida 1764 yildan Monastrliklarda o'qitila boshlandi. Iogann Daniil Preyslerning (1666 -1737) 1735 yili nemis va rus tillarida rasm bo'yicha «Asosiy qoida» yoki «Badiiy rasmga qisqacha rahbarlik» kitobi nashr etiladi. Bu kitob bo'yicha o'quvchi qiyshiq chiziqlarni, geometrik figuralarni, hajmli buyumlarni va oxiri odam figurasini o'rganib rasm ishlashi haqida boradi.

A.Sapojnikov o'zining sermahsul mehnati bilan tasviriy san'at bo'yicha badiiy Akademiyaga o'z ulushini qo'shdi. Rossiya XIX asrda Yevropada birinchilar qatorida edi. K.Bryullov ham o'zining katta xizmatlarini ko'rsatadi. 1758-1805 yillarda Akademiya tasviriy san'atning namunali markazi bo'ladi.

### 3.1. - ilova

#### ZINAMA-ZINA TEXNOLOGIYaSI

##### Rossiyada rasm chizish mакtabi namoyandalari

1.



Iogann Daniil Preyslerning (1666-1737) 1735 yili nemis va rus tillarida rasm bo'yicha «Asosiy qoida» yoki «Badiiy rasmga qisqacha rahbarlik» kitobi nashr etiladi. Bu kitob bo'yicha o'quvchi qiyshiq chiziqlarni, geometrik figuralarni, hajmli buyumlarni va oxiri odam figurasini o'rganib rasm ishlashi haqida boradi.

Rasm ta'limini o'rganishda naturadan foydalanmay Preysler kitobidan nus'ha olinar edi. Bunday metodlardan barcha pedagog va rassomlar ham foydalanishgan. Yana bu metodlardan rassomlik maktablari hamda badiiy Akademiyada foydalanishgan. Preysler metodidagi kamchiliklar, ular naturadan foydalanmadilar. Nus'ha olish bilan

shug‘ullandi. Shakllarni chuqur tahlil etmadilar. Narsalarni konstruksiyasi o‘qitilmadi. Rasmlar konturga asoslanmadi.

A.Sapojnikov o‘zining serunum mehnati bilan tasviriy san’at bo‘yicha badiiy Akademiyaga o‘z ulushini qo‘shti. Rossiya XIX asrda Yevropada birinchilar qatorida edi. K.Bryullov ham o‘zining katta xizmatlarini ko‘rsatadi. 1758-1805 yillarda Akademiya tasviriy san’atning namunali markazi bo‘ladi. Akademik lisey va kollejlari, Arzamas hamda Venesianov rassomlik maktablari va boshqalar Akademiyaga bog‘liq edilar. Bu maktablarga Akademiya vositasida o‘z o‘quvchisiga ma’lumotlar berib, undan so‘ng burchaklar, turli figuralar bilan tanishtiradi. A.Sapojnikov hajmli buyumlar bilan maxsus modellariga murojaat qilib, perspektiva hamda geometrik jismlarga keladi. Kitobda yorug‘ va soyalar ustida ham gap borib, ko‘rgazmali modellarga to‘xtaladi. O‘quvchilar oddiy geometrik xpsmlarni yaxshi o‘zlashtirib olsalar, so‘ng murakkab geometrik jismlarga o‘gar edilar. Oldin geometrik figurallardan natyurmortlar ishlab, so‘nggida esa gipsli kallalar ishlatilishini olg‘a surgan.

Ulug‘ pedagog va metodist P.P.Chistyakov 1832 yili dehqon oilasida tug‘iladi. U 8 yoshga qadar otasi qo‘lida ta’lim oladi. 1840 yili Krasniy Xolm shahriga otasi tomonidan o‘qishga yuboriladi. Talaba 12 yoshga yetganida Bejesk shahridagi 4 klass uyezd o‘qishiga beradi. Uyezdda umumta’lim va rasm fanlarini jiddiy ravishda o‘qib maktabni a’lo tugallaydi. O‘qishni tugatganidan so‘ng (1847) yer o‘lchamchisining yordamchisi bo‘lib xizmat qiladi. 1849 yili Chistyakov Peterburg badiiy Akademiyasiga o‘qishga kiradi. Akademiyani a’lo tugatib, chet mamlakatlarga borib kelganidan so‘ng, u Akademiyada ishlaydi va 1890 yili Badiiy Akademiyani mozaika bo‘limini boshlig‘i bo‘ladi va ana shu vaqtarda metodika ta’limiga asos soladi. U

2.



3.



hayotini ilm bilan bog'laydi. Haqiqiy buyuk san'at, ilmsiz bo'lishi muqarrar emas. Yuqori malakali rangtasvir texnikasi uchun perspektiva va anatomiya ilmi zarurdir. Chistyakov ulug' pedagog bo'lishi bilan bir qatorda u metodistdir. P.Chistyakov o'quvchilari uning yaxshi xislatlarini eslaydilar. Uning metodik qarashlari faqat sobiq Oktyabr inqilobidan so'ng yuzaga chikdi. Badiiy akademiyani 2 seksiyasida sobiq Badiiy Akademiyasi prezidenti, Akademik A.M.Gerasimov shunday deydi, «Biz eski rus maktabining eng yaxshi an'analariga amal qilib uni shakllantirishimiz kerak. Asosan, P.Chistyakovning pedagogik sistema an'analarini rivojlantirishimiz va shakllantirishimiz zarur» - deydi.

### **3.1 – ilova**

**“Qanday” organayzerini to‘ldiring**

### **4.1 - ilova**

#### **«Insert usuli»**

**Insert** – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimini hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi.

<b>1-bosqich</b>  Kirish  10 daqiqa	<b>1.1.</b> Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi. Amaliy mashg‘ulotini olib borish va kutilgan natijalari haqida tushuntiriladi (1-ilova).	Tinglaydi, kuzatadi va mustaqil ishlaydi.
	<b>1.2.</b> Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2-il).	Yozib oladi.
<b>2-bosqich</b>  Asosiy jarayon  60 daqiqa	<b>2.1.</b> Mavzu rejasi bo‘yicha qisqa ma’ruza qilinadi (3-ilova).  <b>2.2.</b> Ma’ruza bo‘yicha “ <b>Insert</b> ” jadvali va ” <b>Baliq skeleti</b> ” chizmasidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi; Tasviriy san‘at darslarida pedagogik tasvirlarni ilmiy o‘rganishda nimalarni o‘rganishni istaysiz? (4 va 4.1-ilovalar).	Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.  Tarqatmali savollarga yakka yoki jamoa bo‘lib javob beradi.
<b>3-bosqich</b>  Yakuniy bosqich  10 daqiqa	<b>3.1.</b> Mavzu bo‘yicha umumiyl xulosa qilinadi.  <b>3.2.</b> Baholash mezonlari e’lon qilinadi.	Tinglaydi va muloqat qiladi.  Yozib oladi.
	<b>3.3.</b> O’z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi.	Baxs munozara olib boriladi.

**1-ilova.**

## VIZUAL MATERIALLAR

Pedagogik tasvir ishlash mashg‘ulotlarining vazifasi tasviriy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari yuzsidan talabalarda malaka va ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir.



Ma’lumki, rasm ishlash malakalarini puxta o‘zlashtirgan shaxs, sinf doskasida talab darajasida rasm ishlay olmasligi mumkin. Shuning uchun ham bo‘lg‘usi o‘qituvchi sinf doskasida rasm ishlash orqali ma’lum malaka va ko‘nikmalar hosil qilishi kerak bo‘ladi.


Sinf doskasida bo‘r bilan qisqa vaqt ichida ishlangan tasvir, avvalo o‘qituvchining fikrini o‘quvchilarga tez va obrazli tarzda yetkazish imkonini beradi. Doskada bajarilgan rasm qog‘ozda ishlangan rasmga qaraganda ancha kam vaqt oladi. Talaba doskada pedagogik rasm ishlash jarayonida uni og‘zaki nutq bilan birgalikda amalga oshiradi. Doskada rasm ishlash faqat oq bo‘r bilan emas, balki rangli bo‘rlar bilan ham ishlanishi mumkin. Bunda rangli bo‘rlardan faqat chiziq chizishda emas, narsalarning ayrim jihatlarini ajratib ko‘rsatish maqsadida ham foydalaniladi.

Rangli bo‘rlardan foydalanish dekorativ kompozisiya (naqsh ishslash) darslarida keng qo‘llaniladi.


Doskada pedagogik rasm ishlaganda quyidagi chizish texnikasi qo‘llaniladi. 1. Kontur chiziqli tasvirlar. 2. Shtrixli hajmli tasvirlar. 3. Tusli hajmli tasvirlar. 5. Aralash tasvirlash texnikasi.

Bajariladigan amaliy ishlar nafaqat sinf doskasining o‘zida, balki doskaga osilgan katta o‘lchamdagи qog‘ozlarda sous, pastel, ugol, sangina, akvarel, guash kabi badiiy materiallar bilan ishlanishi mumkin.





a



b



B



### 13-MAVZU. TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISH.

<b>Ajratilgan soat - 2</b>	Tinglovchilar soni 15-20 nafar
<b>O'quv mashg'ulot shakli:</b>	Kirish ma'ruzasi
<b>Amaliy ish rejasi:</b>	<p>1. Amaliy mashg'ulotida tasviriy san'at asarlarini mazmun va mohiyatini ilmiy o'rganib chiqish.</p>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b>	Amaliy mashg'ulotida tasviriy san'at asarlarini ilmiy o'rganib chiqishning mazmuni va vazifalari haqida ma'lumot berish, kasb ta'limi metodikasi faniga bo'lgan qiziqishini yanada mukammallashtirish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Amaliy mashg'ulotlarini bajarish tartibi haqida ma'lumotlar berish.</li> <li>- tasviriy san'at fan yo'nalishidagi qalam, rang va boshqa fanlarga oid asarlar to'plamini ilmiy o'r ganib chiqish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar amaliy mashg'ulotlarida berilgan vazifalarni ilmiy-uslubiy va mustaqil ishlab chiqishga o'r ganadi.</li> <li>- tasviriy san'at faniga oid asarlar va kerakli amaliy ishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.</li> </ul>
<b>O'qitish usullari va texnikasi</b>	Ma'ruza, amaliy va " <b>Insert</b> " " <b>Konseptual</b> " jadvallar.
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv fan dasturi, o'quv qo'llanma, o'quv qurollar va plakat sinf taxtasi.
<b>O'qitish shakli</b>	Guruh, jamoa.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Elektron doska, multmediali vositalar.
<b>Monitoring va baholash</b>	Kuzatish, suhbat, og'zaki savol javob, o'quv topshiriq.

### Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqtি	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	Pedagog	Talaba
<b>1-bosqich</b>  Kirish  10 daqiqa	<b>1.1.</b> Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi. Amaliy mashg'ulotini olib borish va kutilgan natijalari haqida tushuntiriladi  (1-ilova).	Tinglaydi, kuzatadi va mustaqil ishlaydi.
	<b>1.2.</b> Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2-ilova).	Yozib oladi.

<b>2-bosqich</b> Asosiy jarayon 60 daqiqa	<b>2.1.</b> Mavzu rejasi bo‘yicha qisqa ma’ruza qilinadi (3-ilova).  <b>2.2.</b> Ma’ruza bo‘yicha “Insert” va “Konseptual” jadvalidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojat qiladi; Tasviriy san’at asarlarini ilmiy o‘rganishda nimalarni o‘rganishni istaysiz? (4-4.1-ilova).	Tinglaydi,yozadi,savollarg ajavob beradi.  Tarqatmali savollarga yakka yoki jamoa bo‘lib javob beradi.
<b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich 10 daqiqa	<b>3.1.</b> Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydi va muloqat qiladi.
	<b>3.2.</b> Baholash mezonlari e’lon qilinadi.	Yozib oladi.
	<b>3.3.</b> O’z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi.	Baxs, munozara olib boriladi..

## 1-ilova.

**Mavzu:** Kirish. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasida tasviriy san’at asarlarini mazmun va moxiyatiga qarab ilmiy taxlil qilish.

### R ye j a

1. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini tahlili to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berish.
2. Amaliy mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini mazmun mohiyatiga qarab ilmiy o‘rganib chiqish.

**O’quv mashg‘ulotning maqsadi:** Amaliy mashg‘ulotlari haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

## 2-ilova.

### KONSEPTUAL JADVAL

**Konseptual jadval** o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo‘yicha xususiyatlarni ajratadilar.


2. Alovida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to‘ldiradilar:

- *uzunlik bo‘yicha* taqqoslanadigan (fikr, nazariyalar) joylashtiriladi;
- *yotig‘i bo‘yicha* taqqoslanish bo‘yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

3. Ish natijalarining taqdimoti.

### «TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISH» MAVZUSIDAGI KONSEPTUAL JADVAL (LAVHA)

<i>o‘qituvchi va rassomlar (talabalarning xohishiga ko‘ra)</i>	<b>Ijodiy janrlar</b>			
	<i>Akvarel</i>	<i>Marina</i>	<i>Manzara</i>	<i>Portret</i>



## Anjuman - ma'ruzani tashkil etish metodikasi.

Maqsadi:

- inssenirovka taklif etilgan mavzu yoki qandaydir qo'yilgan vaziyatga o'zining munosabatini konspektiv tarzda bayon etish, nutq ayta olish, tezkor fikrlay olishni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi;
- chiqishlarni tahlil qilish va baholash, ma'ruza qiluvchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

1. Pedagog yoki boshqa boshlovchi mavzuni, maqsadni e'lon qiladi va unga qiziqishni rivojlantiradi.
2. Ekspertlar va sekretar belgilanadi.
3. Qaysi mavzu bo'yicha, ma'ruzachilar o'zlarini qanday vaziyatda tasavvur qiliishlari va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishlari aytib o'tiladi.
4. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi individual tarzda o'zining ma'ruzasini tayyorlaydi.

5. Keyin ishtirokchilarga navbati bilan so‘z beriladi. Ma’ruzalar besh minutdan oshmasligi kerak. Qolgan tinglovchilar ma’ruzachilarni tinglashadi.

6. Ma’ruzalar tugaganidan so‘ng, ekspertlar chiqishlarni aytib o‘tilgan mezonlar bo‘yicha baholashadi. Chiqishlarni tahlil etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir ekspert chiqishga mos bahoni qo‘yadi va ma’ruzachining o‘rnini belgilaydi. Keyin o‘zining tashabbusi bilan yonidagi sherigi bilan baholash bo‘yicha aloqaga kirishadi. Zaruriyat tug‘ilganda, o‘zining bahosiga o‘zgartirish kiritadi. Shundan so‘ng, umumguruhiy munozara o‘tkaziladi. Chiqishlarning mazmuni tahlil qilinadi, ma’ruzachilarning xatti-harakatlaridagi ijobiy va salbiy jihatlar aniqlashtiriladi.

7. Boshlovchi chiqishlar bo‘yicha yakuniy xulosni aytadi va umumlashtiradi.

8. Texnik ekspert ma’ruzachilar egallagan o‘rnlarni e’lon qiladi.

#### **14-MAVZU. TASVIRIY SAN’AT O‘QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI MASHG’ULOTLARIDAN NAMUNAVIY DARSINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH.**

<b>Ajratilgan soat - 2</b>	Talabalar soni 15-20 nafar
<b>O’quv mashg‘ulot shakli:</b>	Kirish ma’ruzasi
<b>Amaliy ish rejasi:</b>	1. Amaliy mashg‘ulotida tasviriy san’at asarlarini mazmun va mohiyatini ilmiy o‘rganib chiqish.
<b>O’quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Amaliy mashg‘ulotida tasviriy san’at asarlarini ilmiy o‘rganib chiqishning mazmuni va vazifalari haqida ma’lumot berish, kasb ta’limi metodikasi faniga bo‘lgan qiziqishini yanada mukammallashtirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Amaliy mashg‘ulotlarini bajarish tartibi haqida ma’lumotlar berish.</li> <li>- tasviriy san’at fan yo‘nalishidagi qalam, rang va boshqa fanlarga oid asarlar to‘plamini ilmiy o‘rganib chiqish.</li> </ul>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar amaliy mashg‘ulotlarida berilgan vazifalarni ilmiy-uslubiy va mustaqil ishlab chiqishga o‘rganadi.</li> <li>-tasviriy san’at faniga oid asarlar va kerakli amaliy ishlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.</li> </ul>
<b>O’qitish usullari va texnikasi</b>	Ma’ruza, amaliy va ” <b>Insert</b> “ ” <b>Konseptual</b> “ jadvallar.

<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv fan dasturi, o'quv qo'llanma, o'quv qurollar va plakat sinf taxtasi.
<b>O'qitish shakli</b>	Guruh, jamoa.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Elektron doska, multmediali vositalar.
<b>Monitoring va baholash</b>	Kuzatish, suhbat, og'zaki savol javob, o'quv topshiriq.

### **Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi**

Ish jarayonlari vaqtি	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	Pedagog	Talaba
<b>1-bosqich</b>  Kirish  10 daqiqa	<b>1.1.</b> Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi. Amaliy mashg'ulotini olib borish va kutilgan natijalari haqida tushuntiriladi  (1-ilova).	Tinglaydi, kuzatadi va mustaqil ishlaydi.
	<b>1.2.</b> Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2-ilova).	Yozib oladi.
<b>2-bosqich</b>  Asosiy  jarayon  60 daqiqa	<b>2.1.</b> Mavzu rejasi bo'yicha qisqa ma'ruza qilinadi (3-ilova).	Tinglaydi,yozadi,savollarg ajavob beradi.
	<b>2.2.</b> Ma'ruza bo'yicha " <b>Insert</b> " va " <b>Konseptual</b> " jadvalidan foydalangan holda qo'yidagi savol bilan murojat qiladi; Tasviriy san'at asarlarini ilmiy o'rganishda nimalarni o'rganishni istaysiz? (4-4.1-ilova).	Tarqatmali savollarga yakka yoki jamoa bo'lib javob beradi.

<b>3-bosqich</b>	<b>3.1.</b> Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydi va muloqat qiladi.
Yakuniy bosqich	<b>3.2.</b> Baholash mezonlari e’lon qilinadi.	Yozib oladi.
10 daqiqa	<b>3.3.</b> O’z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi.	Baxs, munozara olib boriladi..

## 1-ilova.

**Mavzu:** Kirish. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasida tasviriy san’at asarlarini mazmun va moxiyatiga qarab ilmiy taxlil qilish.

### R ye j a

1. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini tahlili to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berish.
2. Amaliy mashg‘ulotlarida tasviriy san’at asarlarini mazmun mohiyatiga qarab ilmiy o‘rganib chiqish.

**O’quv mashg‘ulotning maqsadi:** Amaliy mashg‘ulotlari haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.




### KONSEPTUAL JADVAL

**Konseptual jadval** o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo‘yicha xususiyatlarni ajratadilar.
2. Alovida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to‘ldiradilar:
  - *uzunlik bo‘yicha* taqqoslanadigan (fikr, nazariyalar) joylashtiriladi;
  - *yotig‘i bo‘yicha* taqqoslanish bo‘yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.
3. Ish natijalarining taqdimoti.

**«TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY T AHLIL QILISH»**  
**MAVZUSIDAGI KONSEPTUAL JADVAL (LAVHA)**

<i>o'qituvchi va rassomlar (talabalarning xohishiga ko'ra)</i>	Ijodiy janrlar			
	<i>Akvarel</i>	<i>Marina</i>	<i>Manzara</i>	<i>Portret</i>



## **Anjuman - ma'ruzani tashkil etish metodikasi.**

Maqsadi:

- inssenirovka taklif etilgan mavzu yoki qandaydir qo'yilgan vaziyatga o'zining munosabatini konspektiv tarzda bayon etish, nutq aytta olish, tezkor fikrlay olishni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi;
- chiqishlarni tahlil qilish va baholash, ma'ruza qiluvchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

1. Pedagog yoki boshqa boshlovchi mavzuni, maqsadni e'lon qiladi va unga qiziqishni rivojlantiradi.
2. Ekspertlar va sekretar belgilanadi.
3. Qaysi mavzu bo'yicha, ma'ruzachilar o'zlarini qanday vaziyatda tasavvur qilishlari va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishlari aytib o'tiladi.
4. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi individual tarzda o'zining ma'ruzasini tayyorlaydi.
5. Keyin ishtirokchilarga navbati bilan so'z beriladi. Ma'ruzalar besh minutdan oshmasligi kerak. Qolgan tinglovchilar ma'ruzachilarni tinglashadi.
6. Ma'ruzalar tugaganidan so'ng, ekspertlar chiqishlarni aytib o'tilgan mezonlar bo'yicha baholashadi. Chiqishlarni tahlil etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir ekspert chiqishga mos bahoni qo'yadi va ma'ruzachining o'rnini belgilaydi. Keyin o'zining tashabbusi bilan yonidagi sherigi bilan baholash bo'yicha aloqaga kirishadi. Zaruriyat tug'ilganda, o'zining bahosiga o'zgartirish kiritadi. Shundan so'ng, umumguruhiy munozara o'tkaziladi. Chiqishlarning mazmuni tahlil qilinadi, ma'ruzachilarning xatti-harakatlaridagi ijobiylari va salbiy jihatlar aniqlashtiriladi.
7. Boshlovchi chiqishlar bo'yicha yakuniy xulosni aytadi va umumlashtiradi.
8. Texnik ekspert ma'ruzachilar egallagan o'rnlarni e'lon qiladi.

## **15-MAVZU. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA DIDAKTIK PRINSIPLAR.**

### **TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYaSINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Vizual ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza mashg'uloti rejasi:</b>	1. Ta'lrim sohasidagi prinsiplar (insonparvarlik, gumanizm, demokratizasiya, integrasiya, differensiasiya va individualizasiya). 2. Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san'atni o'qitishdagi ahamiyati. 3. Tasviriy san'atni o'qitishda

	didaktik prinsiplarning o‘ziga xos xususiyatlari.
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi.</b> Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplar asoslari haqida ma’lumot berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ta’lim sohasidagi prinsiplar insonparvarlik, gumanizm, demokratizasiya, integrasiya, differensiasiya va individualizasiya haqida tushuncha berish.</li> <li>- Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san’atni o‘qitishdagi ahamiyati haqida tushuncha berish.</li> <li>- Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.</li> </ul>	<b>Talaba:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ta’lim sohasidagi prinsiplar insonparvarlik, gumanizm, demokratizasiya, integrasiya, differensiasiya va individualizasiya haqida tushunchaga ega bo‘ladi;</li> <li>- Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san’atni o‘qitishdagi ahamiyati haqida tushuncha oladi.</li> <li>- Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot oladi.</li> </ul>
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma’ruza, og‘zaki bayon qilish, «Qanday» diagrammasi, «B\B\B» jadvali.
<b>O‘qitish vositalari</b>	O‘quv uslubiy kompleks, o‘quv qo‘llanma, videoproyektor, ko‘rgazmali plakatlar.
<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O‘qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.

## MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni

<b>vaqtি</b>	<b>Pedagog</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. (2-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</p> <p>1.2. Yozib oladi.</p>
<b>2-bosqich. Asosiy (60 min.)</b>	<p><b>2.1. <i>Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo‘yicha ma’ruza qiladi (3-ilova).</i></b> Ma’ruza bo‘yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: (4-ilova). Slayd 1.</p> <p><b>2.2. <i>O‘qituvchi ikkinchi punkti rejasi bo‘yicha vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishni davom etadi (3-ilova).</i></b> Ma’ruza bo‘yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san’atni o‘qitishdagi ahamiyati qanday? (5-ilova).</p> <p><b>2.3. “B/B/B” usulidan foydalangan holda guruhlarga topshiriq beradi (6-ilova).</b> Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo‘srimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi, fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.</p>	<p>2.1. O‘ylaydi, javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Yozadi, savolga javob beradi.</p> <p>2.3. Yozadi, savolga javob beradi.</p>
<b>3-bosqich Yakuniy (10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>Faol Tinglovchilar baholanadi. Uyga vazifa beriladi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqnini yozib oladi.</p>

Mavzu: Kirish. Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.

### R y e j a

1. Tasviriy san'at o'qitishning didaktik prinsiplari mohiyati va ta'lilda qo'llaniladigan prinsiplar to'g'risida umumiy ma'lumotlar berish.
2. Tasviriy san'at ta'lilda qo'llaniladigan didaktik prinsiplarni ketma-ketligi haqida tushunchalar berish.

**O'quv mashg'ulotning maqsadi;** Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish.

### 2-ilova.

## VIZUAL MATERIALLAR

Umumta'lim maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qituvchi hozirgi zamon didaktikasini egallashi va uni ijodiy ravishda amalda qo'llay bilish maqsadga muvofiqdir. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va auditoriyadan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik prinsiplar va ularning asosiy masalalari Yevropaning buyuk pedagog - olimlari Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalossilar tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, didaktik prinsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Didaktik prinsiplar hisoblangan ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarining kuchi va yoshiga mos bo'lishi tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplarni professorlar N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin, R.Xasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

**Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.**



**Ta’lim va tarbiya birligi prinsipi** didaktik prinsiplarning eng asosiyalaridan hisoblanadi va bu tasviri san’atni o‘qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o‘quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

O‘. Tansiqboyevning «Jonajon o‘lka», X.Rahmonovning «May tongi», N. Karaxanning «Oltin kuz», Z.Inog‘omovning «Choyga», Yu.Yelizarovning «Natyurmort» kabi asarlarida O‘zbekiston ko‘rk-jamoli yorqin aks ettirilgan. O‘quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda ularda ona-vatanimizga bo‘lgan ilk muhabbat paydo bo‘ladi, o‘lkaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ulari yanada kuchayadi.

Tasviriy san’at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozisiya ishlash, boshqa millat va xalqlar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustrasiya-larni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

Turli millat yozuvchilarining asarlari va xalqlarining og‘zaki ijodiga xos illyustrasiyalar o‘quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g‘oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi.

P.P.Benkov (Dugonalar), A.Abdullayev (Shomahmudovlar oilasi), Q.Husniddinxo'jayev (Navoiy va Jomiy), A.Siglinsev (Mening uym, sizning ham uyingiz), O'.Tansiqboyev (Issiqko'l oqshomi) va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do'stlik g'oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, tasviriy san'at dasturiga bir qator Sharq va G'arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrantd, Rubens, Kent, Pikasso, Matiss va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalarini amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me'morchilagini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san'at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos hamda umumiy belgilarini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mehnati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiatini bilan oshno bo'ladilar.

**Ilmiylik prinsipi** didaktik prinsiplarning eng asosiylaridan biri bo'lib, u fan asoslarini chuqur o'zlashtirmasdan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin emasligini bildiradi. Boshqa o'quv predmetlaridagi kabi bu prinsip tasviriy san'at darslarida ham amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug'-soya, rangshunoslik, kompozisiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ham ega bo'lishlari lozim. Tasviriy san'at dasturida o'quvchilarning bu qonunlarni o'zlashtirishlari ko'zda tutiladi. Perspektiva qonunlarni o'zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassom yoki o'quvchining rasm chizish uslubi har xil bo'lishi mumkin, lekin rasm yoki san'at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo'lishi shart. Perspektiva qonunlari hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishslash, o'Ichovlarni o'zgarish perspektivasi, och-to'qlikni o'zgarish perspektivasi, ranglarni o'zgarish perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi v.b. realistik rasm ishslashga o'rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi tasviriy san'at o'qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini, amaliyotda tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi.

**Ko'rgazmalilik prinsipi** borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Naturani o'rganishda (sinfda va plenerda) o'quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan obyektni ko'rsatish imkonini bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi.

Ko‘rgazmalilik tasviri san’at darslarida o‘quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida uni naturasiz tasavvur etib bo‘lmaydi, bu o‘rinda tasviri san’at darslarida ko‘rgazmalilik prinsipining roli juda katta.

Darslar uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo‘yiladi: 1. Darsning maqsad va vazifalariga mosligi. 2. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariiga mosligi. 3. Ko‘rgazmaning aniqligi, tushunarli bo‘lishi. 4. Tasvirning sifatli bo‘lishi. 5. Ko‘rgazmalar o‘zining rang-barangligi bilan o‘quvchilarda zavq va qiziqish uyg‘otishi. 6. Estetik talablarga mosligi.

Rasmlar, asarlarining reproduksiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustrasiyalarni tanlashda quyidagilar e’tiborga olinishi kerak: 1. Materiallarning g‘oyaviyligi. 2. Badiiyligi. 3. Tasviri san’at darslarining o‘quv-tarbiya vazifalariga mosligi. 4. Bolalar idrokiga mosligi.

Ko‘rgazmalilikning ikki turi mavjud:

1. Tabiiy ko‘rgazmali qurollar. 2. Tasviri ko‘rgazmali qurollar.

Tabiiy ko‘rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo‘lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o‘quv qurollari, amaliy san’at buyumlari va h.k.)ni kiritish mumkin.

Tasviri ko‘rgazmali qurollarga rasmlar, tablisalar, hayvon va qushlarning tulumlari, suratlarning reproduksiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sun’iy usul bilan tayyorlangan tasviri vositalar kiradi.

**Pedagogik rasm** chizishning keng tarqalgan turi o‘qituvchining doskada yoki qog‘ozda rasm chizib ko‘rsatishi hisoblanadi va u bolalarga amaliy yordam berishda qo‘l keladi.

Pedagogik rasmning qiymati shundaki, u bevosita o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida bajariladi. U o‘qituvchining fikrlarini o‘quvchilarga oson va sodda qilib yetkazishda yordam beradi.

Doskadagi rasm o‘qituvchining asosiy g‘oya va fikrlarini o‘zida aks ettirishi lozim. Tasodifiy va ikkinchi darajali rasmlarga sinf doskasida o‘rin bo‘lmasligi kerak.

Doskada rasm chizish hamma o‘qituvchilarning ham (hattoki tajribali va ma’lumotli o‘qituvchining ham) qo‘lidan kelavermaydi. U o‘qituvchidan ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Bu tayyorgarlik esa alohida mashqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**O‘qitishning ongli bo‘lish va o‘quvchilarning bilish faolligi prinsipi** o‘quv jarayonining o‘stiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirishga olib keladi. Onglik prinsipining ahamiyati fan, texnika va madaniyat gurkirab rivojlangan hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu prinsip o‘qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni ongli, tushungan holda o‘zlashtirishni bildiradi. O‘quvchilar bu bilimlarni ko‘r-ko‘rona emas, balki berilayotgan tushuncha ma’lumotlarni ma’no mohiyatini anglab yetgandagina uning bilimlari chuqur va mustahkam bo‘ladi va u bolalar xotirasida uzoq

saqlanadi. Bunga erishish uchun o‘quvchilarning faolligi diqqati va mustaqil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘ziga qarab rasm chizish darslarida naturani sinchiklab o‘rganish ularning tuzilishi, hajmi, shakli, o‘lcham va ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini bilish kerak bo‘ladi.

Tasviriy san’at asarlariga oid materiallarning ongli o‘zlashtirilishi ilmiylik prinsipidagi perspektiva, rangshunoslik, optika va yorug‘-soya qonunlari, anatomiyan dan ba’zi ma’lumotlarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu qonunlarni egallamasdan turib, o‘quvchilar o‘z tasviriy faoliyatilarini to‘g‘ri amalga oshira olmaydilar.

O‘quv jarayonini samarali bo‘lishida solishtirish, taqqoslash, naturani kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Natura tahlilini savol-javob shaklida o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda o‘quvchilar naturani yuzaki o‘rganish bilan cheklanib qolishlari mumkin.

Buyumlarni to‘g‘ri chizish uchun ularning tuzilishi, shaklini to‘g‘ri belgilash bilan birga fazoviy holatini to‘la tasavvur etish kerak bo‘ladi. Shundagina predmetlar rasmini ishlashga o‘tish mumkin.

O‘quvchilardan tasviriy san’atga oid atamalarni ongli o‘zlashtirishlarini talab etilishi va ularni buzib ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Rasm chizish jarayonida o‘quvchilarning ba’zi atamalarni o‘zlashtirib olishlarini o‘zi yetarli emas, ularga atamalarning kelib chiqishi, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarga ilmiy tushunchalarni, atamalarni to‘g‘ri ishlatishlariga yordam beradi.

O‘quvchilar ufq chizig‘i, chiziqli va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to‘liq ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak.

O‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo‘lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo‘llash lozim. O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o‘quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emosionallik) bilan bog‘liqdir. Bunda g‘oyalarni chuqr tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda g‘oyalalar ichki hissiyotlar tufayli to‘la ongli ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo‘lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o‘qish, hikoya qilish, muzika tinglash, slaydlar ko‘rsatish orqali erishish mumkin. Agar o‘qituvchi voqyea va hodisalarini ta’riflashda ularning go‘zalligi, nafisligi, yoqimliligiga alohida e’tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. Shuningdek, buyumlarning shakllari, o‘lchovlaridagi proporsionallik, yorug‘soya nisbatlari va boshqalarni san’at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O‘qitishni faollashtirish uchun o‘quvchilarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag‘batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi ishlarni butun sinfga ko‘rsatish yoki ularni maktab ko‘rgazmasiga tavsiya etish, o‘z kuchiga ishontirish, obyektiv tanqid, turli xildagi yordamlar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish mumkin.

Tasviriy san’at darslarida ham materiallarni **muntazam va ketma-ketlikda bayon etish prinsipi** muhim ahamiyatga ega. Bu prinsip butun kurs davomida

o‘quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingen bilim, malaka va tajribalarga suyangan holda, yangi materiallarni o‘tilganlar bilan bog‘lab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Amaldagi tasviriy san’atdan davlat ta’lim standarti materiallarni bayon etishning faqat ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirishnigina emas, balki uning muntazam bo‘lishligini ham nazarda tutadi.

Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarini kompozisiya darslari bilan, san’atshunoslik asoslari darslarini narsaning o‘ziga qarab, kompozisiya darslari bilan bemalol bog‘lash mumkin. Tasviriy san’at darslarining har bir turini o‘zarbo‘g‘liqlikda amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bir o‘quv fanining boshqa o‘quv fanlari bilan aloqasi tasviriy san’atni o‘qitishda yagona tizimni tashkil etish imkonini beradi. Ayrim hollarda shunday bo‘ladiki, hamma mavzular ham o‘tilgan materiallar bilan bog‘lanavermaydi. Bu o‘qituvchidan o‘quv materiallarini chuqur o‘rganishni, natura uchun buyumlarni, suvratlar, reproduksiyalar, slaydlar va boshqa ko‘rgazmalarni tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lishlikni talab etadi.

Masalaga bunday yondashilganda materiallarni bayon etishda parallelizm va qaytarilishlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, pedagog taqvimi yillik mavzularni rejalashtirganda o‘quvchilarining rangshunoslikdan oladigan bilimlari quyidagicha ketma-ketlikda bo‘lishi mumkin: assiy va hosila ranglar, hosila ranglarni hosil qilish, ranglar kontrastligi, qonunlari, iliq va sovuq ranglar, atrof-muhitni ranglar ta’sirida o‘zgarishi, murakkab hosila ranglar, rang va yorug‘lik, buyumlar rangini uning foni bilan aloqasi, havo perspektivasi va boshqalar.

Tasviriy san’atni o‘qitishda ***nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog‘liqligi*** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to‘garak mashg‘ulotlarida, jamoa ishlarida, ya’ni devoriy gazetalar chiqarish, albom bezash va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tasviriy san’at janrlari yuzasidan nazariy mashg‘ulotlardan so‘ng ana shu janrlarda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazilishi, o‘tilganlarni mustahkamlash, yangisini oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘qitishning o‘quvchilar ***yoshiga mos bo‘lishi prinsipi*** berilayotgan bilimlar yoki ular o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materiallarni murakkablik darajasini bolalar yoshiga va kuchiga mos bo‘lishini nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim o‘qituvchilar 5-7 sinflarda ham to‘rtburchak, doira shaklidagi naqshlar ishlashni davom ettiradilar. Bu topshiriqlar 3-4 sinflardagi vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bularidan tashqari, o‘quvchilarga doskaga chizilgan tayyor naqshdan nusxa ko‘chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan topshiriqlarning bolalarga oson bo‘lishilagini nazarda tutadilar.

Ma’lumki, o‘quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o‘qituvchidan o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya’ni o‘qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to‘g‘rilashga ba’zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi.

O‘qitishning o‘quvchilar yoshiga maosligi prinsipi qadimdan qo‘llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma’lumdan noma’lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka prinsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu prinsip qadimdan tajribadan o‘tganligi sababli o‘qituvchini o‘z faoliyatida shu yo‘ldan borishi ko‘zlangan maqsadga erishuviga asos bo‘ladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo‘lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo‘lishi ham mumkin. Bunda o‘quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Masalan, tasviriy san’atni o‘qitishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o‘qituvchi avval bolalarga yaqin bo‘lgan o‘zbek xalqining tabiatini, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O‘zbekiston rassomlari asarlarini, so‘ngra O‘rta Osiyo, Sharq, Yevropa mamlakatlari san’atini o‘rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan o‘quv jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligi ko‘rsatilgan. Didaktik prinsiplar o‘quvchilarning badiiy ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishiga shart-sharoitlarni yaratadi.

### ***Turli yo‘nalishlardagi badiiy ta’limdagi o‘qitish prinsiplari***

«Qalamtasvir maktabi – umumiy grafik savodxonligi»

#### ***V. S. Kuzinning an’nanaviy dasturi***

1. Tarbiyaviy ta’lim.
2. Ilmiylik ta’lim.
3. Ko‘rgazmalilik ta’lim.
4. Ta’limda muntazamlik va ketma-ketlik.
5. Ta’limda onglilik va faollik.
6. Ta’limning tushunarligi.
7. O‘quv materialni mustahkam o‘zlashtirishi.

«Ma’naviy madaniyatning qismi sifatida badiiy madaniyatini shakllantirish»

#### ***B.M.Nemenskiy dasturi***

1. O‘xshashlik badiiy qonuni (pedagogik dramaturgiya, o‘yin roli).
2. O‘zlashtirish prinsipi (yaxlitlik va his-tuyg‘u o‘zlashtirish prinsipi).
3. Hayot bilan doimiy bog‘liqliq prinsipi.
4. San’at cho‘qqisiga (yuksak darajaga) tayanch prinsipi (xarakterli, yagonalik).
5. Ta’lim jarayonida mazmun va shaklni birlik prinsipi (badiiy timsol va bajarish texnikasi).
6. Bilim va malakalarini o‘zlashtirish talabini yaratish prinsipi.

**5 – ilova**

**“Qanday” organayzerini to‘ldiring**

## **16-MAVZU. BOSHLANG’ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN’AT O‘QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI.**

### **TA’LIM BERISH TEXNOLOGIYaSINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Vizual ma’ruza</b>

<b>Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:</b>	1. Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi. 2. Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlari metodikasi. 3. Boshlang‘ich sinflarda o‘ziga qarab haykal ishslash metodikasi.
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi haqida ma’lumot berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi haqida tushuncha berish.</li> <li>- Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlari metodikasi haqida tushunchalar berish.</li> <li>- Boshlang‘ich sinflarda o‘ziga qarab haykal ishslash metodikasi haqida ma’lumot beriladi.</li> </ul>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi;</li> <li>- Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlari metodikasi haqida tushunchalarga ega bo‘ladi.</li> <li>- Boshlang‘ich sinflarda o‘ziga qarab haykal ishslash metodikasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.</li> </ul>
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma’ruza, og‘zaki bayon qilish, «Qanday» diagrammasi, «B\B\B» jadvali.
<b>O‘qitish vositalari</b>	O‘quv uslubiy kompleks, o‘quv qo‘llanma, videoproyektor, ko‘rgazmali plakatlar.
<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishslash.
<b>O‘qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

<b>Bosqichlar vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Pedagog</b>	<b>Talaba</b>

<b>1-bosqich</b> <b>Kirish</b> <b>(10 min.)</b>	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. (2-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</p> <p>1.2. Yozib oladi.</p>
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(60 min.)</b>	<p><b>2.1.</b> <i>Tinglovchilarining e’tiborini jalg etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javoblar o‘tkazadi (3- ilova).</i></p> <p>Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’atni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida Tinglovchilarga tushuncha beradi; Ma’ruza bo‘yicha Slayd-1 va ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining qanday turlari mavjud? (5-ilova).</p> <p><b>2.2.</b> <i>O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi.(6-ilova).</i></p> <p>Boshlang‘ich sinflarda naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlari metodikasi haqida Tinglovchilarga tushunchalar beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tasviriy san’atda naturaga qarab ishslash mashg‘ulotining mazmuni qanday ? (6.1.-ilova).</p> <p><b>2.3.</b> <i>Mavzu rejasining uchinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. (7-ilova).</i> Boshlang‘ich sinflarda o‘ziga qarab haykal ishslash metodikasi haqida ma’lumot beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Boshlang‘ich sinfda o‘ziga qarab haykal ishslash mashg‘uloti qanday? (7.1.-ilova).</p>	<p>22.1. O‘ylaydi, javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Yozadi, savolga javob beradi.</p> <p>2.3. Yozadi, savolga javob beradi.</p>

<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>(10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag'batlantiradi.</p> <p>Faol Tinglovchilar baholanadi (2-ilova).</p> <p>3.3 O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi. BBB jadvali (8-ilova).</p>	<p>3.1. Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p> <p>3.3. Javob yozadi.</p>
--	--	---

**1-ilova**

### **Mavzu: Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi.**

#### **R e j a**

1. Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar berish.
2. Boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulotlarning metodikasini o‘ziga xos xususiyatlari.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi haqida umumiylar metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

#### **VIZUAL MATERIALLAR**

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’atni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta’lim mazmuni kichik muktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma’lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma’lum. Bolalar o‘qish va yozishdan ko‘ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo‘ladi, 1-2 daqiqa, ko‘pi bilan 4-5 daqiqada har qanday rasmni tugallab qo‘yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo‘lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko‘rinishni, voqyeani yoki buyumni o‘z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo‘yoqlar bilan ishslash ularga ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo‘yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o‘z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda

o‘qituvchining bolalarga tez yordam ko‘rsatishi va kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilishi foydadan holi bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan biri chizadigan rasmlarni soddalashtirishga bo‘lgan xarakatlari. Ular ayrim narsalarning oldi ko‘rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel), ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha va b.), boshqalarni ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo‘ng‘iz va b.) tasvirlaydi. Bunga asosiy sabab bu yoshdagи bolalar hali narsalarni yorug‘-soya, perspektiv qisqarish va ularning qoidalarini tushunib yetmaganliklaridir.

## Бошланғич синф методикасининг ўзига хос

### **ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Борлиқни  
идрок этиш.**

1. Буюмни, табиатни ўзига қараб кузатиш орқали ўрганиш.
2. Борлиқ ҳақида ўқитувчининг сұхбати орқали ўрганиш.
3. Савол-жавоб орқали ўрганиш.
4. Борлиқни расмини чизиш орқали ўрганиш.
5. Ўқитувчининг педагогик расми орқали ўрганиш ва б.

**Натурага қараб  
тасвирлаш  
(натурага қараб  
расм ишлеш,  
натурага қараб**

Натурага қараб расм ишлеш болаларнинг ёшлиқ хусусиятларини ҳисобга олган нарсаларни ўзига қараб расмини ишлешни назарда тутади. Натурага қараб расм ишлеш, натураны кузатиш, унинг түзилиши, шакли, ранги, ўлчамлари, ўлчам нисбатларини таҳлил қилиш, расмларни натура билан солишириш каби методлар асосида олиб борилади.

Натурага қараб ҳайкал ишлешда болалар лой ва стек билан тўғри муносабатда бўлиши, лой парчаларини ўзаро қўшиш орқали ҳайкал ишлеш, шунингдек, биргина лой бўлагидан ортиқча жойларини олиб ташлаш

**Композицион  
фаолият**

Бошланғич синфларда рангтасвир композицияси, декоратив композиция ва ҳайкалтарошлик композицияси каби қисмлардан ташкил топади.

Рангтасвир композицияси машғулотларида болалар кўпроқ йил фасллари, байрамлар, оммавий томошалар, қишлоқ ва шаҳар меҳнаткашларининг кундадлик меҳнати, қуш ва ҳайвонлар ҳаёти кабиларга доир мавзуларда расм ишлайди.

Декоратив композиция машғулотлари нақш ишлеш, эртак ва ҳикоялар асосида иллюстрациялар ишлеш кабиларни назарда тутади. Ҳайкалтарошлик композицияси машғулотлари лойдан ясалган ўзбек халқ ўйинчоқлари анъаналари асосида мазмунли ҳайкалчалар ишлеш мавзулари

## **Naturaga qarab tasvirlash**

Naturaga qarab tasvirlash ikki qismdan tashkil topadi. 1. Narsaning o‘ziga qarab rasm ishlash. 2. Narsaga qarab haykal ishlash.

Naturaga qarab rasm ishlash bolalarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan narsalarni o‘ziga qarab rasmini ishlashni nazarda tutadi.

Naturaga qarab rasm ishlash, naturani kuzatish, uning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchamlari, o‘lcham nisbatlarini tahlil qilish, rasmlarni natura bilan solishtirish kabi metodlar asosida olib boriladi. Naturaning o‘lchamiga qarab ularni chizish uchun yiriklarini sinfda 2-3 joyga, maydalarini har bir partaga bittadan qo‘yib chiqish kerak bo‘ladi.

Mayda o‘lchamdagи naturani, aytaylik bargni natura sifatida hamma joyda bir xil bo‘lishi shart emas, ularni bolalarni rasm ishlash layoqatiga qarab har xil murakkablikdagisini qo‘ysa bo‘ladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda bolalarni bosqichlar asosida rasm ishlashga o‘rgatish muhim. Bunda bolalar, birinchi galda rasmni o‘lchov jihatidan to‘g‘ri belgilash, ikkinchidan rasmni qog‘oz yuzasida to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatiladi. Keyinchalik naturaning tasvirini ishlashga o‘tiladi. Bunda rasm ishlashni ikki xil metodikasi qo‘llaniladi: 1). Naturani yordamchi chiziqlar asosida belgilab olib rasmini ishlash. 2). Naturani bir yo‘la bo‘laklar shaklining rasmini ishlashdan boshlanib, so‘ngra ularni umumlashtiriladi va bo‘yaladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda yordamchi chiziqlardan foydalanish bilan bir qatorda o‘q chiziq, simmetriya o‘qidan foydalaniladi. Shunindek, narsalar tasvirini bironta geometrik shaklga tushirib olib ham ishlanadi. Xususan, ninachi rasmini ishlaganda avval uning qanotlarini to‘rtburchak shaklida, soatni aylana shaklida chizib olinadi, keyinchalik uning tasvirini aniqlashtiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda rasm ishlash malakalarini hosil qilish ko‘proq naturaga qarab rasm ishlash bo‘limiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilarining o‘quv qurollari (qalam, o‘chirg‘ich, bo‘yoq, daftar v.b.) bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, ularni to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatish muhimdir. Rasm ishlash malakalarini shakllantirish esa ma’lum tizimda amalga oshirilgani ma’qul. Ayniqsa, to‘g‘ri-tik, to‘g‘ri-yotiq, to‘g‘ri-og‘ma, egri kabi chiziqlarni chizdirish, ularni teng yoki teng bo‘lmagan bo‘laklarga bo‘lishga o‘rgatish ma’lu m ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, shakllar, bo‘yoqlar bilan yuzani qalam yoki bo‘yoq bilan bir tekisda bo‘yash yuzasidan bilim va malakalar hosil qilishda ham shu tartibga rioya qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hali rasm ishlash layoqatlarining pastligini hisobga olib, ularga ortiqcha, murakkab vazifalar berib bo‘lmaydi. Narsalar rasmini ishlashda ularning hajmini yorug‘-soya, perspektiva qoidalari asosida tasvirlash ham talab etilmaydi. Shuningdek, ular tomonidan chizilgan rasmga ortiqcha talablar ham qo‘yib bo‘lmaydi.

## **Haykaltaroshlik kompozisiya**

Haykaltaroshlik kompozisiyasи mashg‘ulotlariga boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin ajartilgan. Ularga hayotiy mavzularda, shuningdek, ertak, hikoya, masal mavzulari asos qilib olinadi. Shuningdek, haykaltaroshlik kompozisiyasи

mashg‘ulotlari uchun loydan yasalgan o‘zbek xalq o‘yinchoqlari an’analari asosida mazmunli haykalchalar ishlash mavzulari ham beriladi. Bunday mavzular qatoriga "Tuya va bo‘taloq", "Poyga" kabilarni kiritish mumkin. Mazmunli haykalchalar bolalar uchun qiyinlik qilganligi uchun topshiriqlar jamoa bo‘lib bajariladi, bunda kompozisiyada ishtirok etuvchilar, shuningdek ijodiy guruhrar soni va har bir o‘quvchining vazifasi belgilanadi. Masalan, "Tuyalar karvoni" mavzusida haykaltaroshlikdan kompozisiya ishlanadigan bo‘lsa, mavzuga doir karvonboshi, 5-6 tuya (yuklari bilan) bir it, bir eshak haykalchalarini ishlash kerak bo‘ladi. Ularning har birini bittadan o‘quvchiga topshiriladi.

Ishlar tayyor bo‘lgach, avvaldan kelishib olingan kompozisiya loyihasi bo‘yicha haykalchalar joy-joyiga qo‘yiladi. Bunda karvonning eng oldida it, keyin eshak minib olgan karvonboshi, oxirida yuklangan 5-6 tuya ketma-ket qo‘yiladi va kompozisiya tayyor bo‘ladi.

Haykaltaroshlik kompozisiyasi mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘z e’tiborini quyidagi jihatlarga qaratishi lozim. Bolalar kuchi va qiziqishiga mos mazmun va kompozisiyani topish, kompozisiyada ishtirok etuvchi detallarni aniqlash, kompozisiyadagi detallar o‘rtasidagi aloqadorlikka bolalar e’tiborini qaratish, kompozisiya detallarini to‘g‘ri tasvirlash talab etiladi.

Vazifani talablar darajasida bajarilishi uchun o‘qituvchi mavzuga doir illyustrativ materiallarni namoyish va tahlil etishi muhim. Shu bilan birga vazifani bajarishga qiynalayotgan o‘quvchilar yoki guruhlarga amaliy yordam ko‘rsatiladi.

### **Borliqni idrok etish**

**Borliqni idrok etish** mashg‘ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo‘lib, uning maqsadi bolalarni o‘rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarining tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchamlari, o‘lcham nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya’ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lganliklari taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma’lumotlarni bolalarga og‘zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchamlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Dekorativ kompozisiya**

Boshlang‘ich sinflarda **dekorativ kompozisiya** mashg‘ulotlari naqsh ishslash, ertak va hikoyalar asosida illyustrasiyalar ishslash kabilarni nazarda tutadi. Bu borada naqsh ishslash mashg‘ulotlari katta o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, yo‘lsimon, kvadrat, to‘rburchak, aylana shaklidagi naqsh namunalaridan ko‘chirib o‘rganishga, o‘zbek xalq amaliy san’ati namunalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor beriladi. Bunda ko‘proq naqsh kompozisiyasi, rang, elementlarni to‘g‘ri tasvirlash, ularni ijodiy xarakterda bo‘lishligiga, naqsh foni bilan uning elementlarining ranglari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, stilizasiya masalalari o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi hisoblanadi. Shuningdek, naqsh gulining nomlarini ham o‘quvchilarga ko‘rgazmali tarzda tushuntirib borish talab etiladi.

Dastlabki mashg‘ulotlarda bolalar yo‘lsimon naqsh namunalaridan ko‘chirsalar, keyingisida naqsh sxemalari va elementlari asosida, oxirida butunlay ijodiy naqsh chizadilar.

### **Kompozision faoliyat**

Kompozision faoliyat mashg‘ulotlari boshlang‘ich sinflarda rangtasvir kompozisiysi, dekorativ kompozisiya va haykaltaroshlik kompozisiysi kabi qismlardan tashkil topadi.

Rangtasvir kompozisiyasi mashg‘ulotlarida bolalar ko‘proq yil fasllari, bayramlar, ommaviy tomoshalar, qishloq va shahar mehnatkashlarining kundalik mehnati, qush va hayvonlar hayoti kabilarga doir mavzularda rasm ishlaydilar. Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi o‘zining asosiy e’tiborini bolalar rasmlarida aks etadigan g‘oya, rasm mazmuni, rasm elementlarini qog‘oz yuzasida kompozision jihatdan to‘g‘ri savodli qilib tasvirlanishiga qaratishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda tasvirlanayotgan jarayon yoki narsalarning hajmini yorug‘soya, perspektiva yordamida tasvirlash talab etilmaydi. Perspektiva qoidalariга rioya qilish talab etilmasada, biroq, yaqindagi narsalarni yirikroq, uzoqdagisini kichikroq tasvirlanishi lozim. Rangtasvir kompozisiyasida tasvirlangan hayvonlar, qushlar, odamlar o‘rtasidagi bir-birlari bilan bog‘liqlikni, aloqadorlikni ham aks ettirish kerak bo‘ladi. Kompozisiyadagi barcha elementlar o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanishi shart. Bolalar rangtasvir kompozisiyasini xarakterli xususiyatlaridan biri, ularning rasmlaridagi soddalik, jo‘nlik, dunyonи o‘zlaricha idrok etishlari va tasvirlashlari hisoblanadi. Ulardagi bu xususiyatlar bolalar rasmlarida saqlanishi lozim. O‘qituvchining bu masaladagi asosiy vazifasi bolalarning ijodiy faolligini oshirishga, rasmdagi g‘oyani to‘liq ifodalay olishga, rasmni emosional ta’sirini kuchaytirishga ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

## **17-MAVZU. TASVIRIY SAN’AT O‘QITISH NAZARIYASI VA METODIKASIDAN TOPSHIRIQLAR, ULARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH. TA’LIM BERISH TEXNOLOGIYASINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni 20-25 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	Vizual ma’ruza
<b>Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>O‘quvchilar bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati va topshiriqlarning shakllari.</li> <li>O‘quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari.</li> <li>O‘quvchilarining bilim va malakalarini baholash mezonlari.</li> </ol>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b>	Tasviriy san’atdan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash haqida ma’lumot berish.

<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O‘quvchilar bilim va malakalarni nazorat qilish va baholashning mohiyati va topshiriqlarning shakllari haqida tushuncha berish.</li> <li>- O‘quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari haqida ma’lumot berish.</li> <li>- O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari haqida ma’lumotlar beriladi.</li> </ul>	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O‘quvchilar bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati, topshiriqlarning turlari haqida tushunchalarga ega bo‘ladi;</li> <li>- O‘quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari haqida ma’lumot oladi.</li> <li>- O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari haqida ma’lumotlar oladi.</li> </ul>
<p><b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b></p>	<p>Vizual ma’ruza, og‘zaki bayon qilish, «Qanday» diagrammasi, «B\B\B» jadvali.</p>
<p><b>O‘qitish vositalari</b></p>	<p>O‘quv uslubiy kompleks, o‘quv qo’llanma, videoproyektor, ko‘rgazmali plakatlar.</p>
<p><b>O‘qitish shakli</b></p>	<p>Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.</p>
<p><b>O‘qitish shart-sharoitlari</b></p>	<p>Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.</p>

### **MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI**

<b>Bosqichlar vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Pedagog</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. (2-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</p> <p>1.2. Yozib oladi.</p>

<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(60 min.)</b>	<p><b>2.1.</b> Mavzu rejasining birinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. O‘quvchilar bilim va malakalarni nazorat qilish va baholashning mohiyati va topshiriqlarning shakllari haqida tushuncha beradi. <b>Slayd 1.</b> Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: O‘quvchilar bilimi va malakalari qanday nazorat qilinadi va baholanadi? (<b>3-ilova</b>).</p> <p><b>2.2.</b> <i>O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda rejaning ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruzani bayon etishni davom etadi</i> (<b>4-ilova</b>). O‘quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari haqida Tinglovchilarga tushuncha beradi; <b>Slayd 2.</b> Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tasviriy faoliyatni nazorat qilishni qanday turlari mavjud? (<b>5-ilova</b>).</p> <p><b>2.3.</b> Mavzu rejasining uchinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. (<b>6-ilova</b>). O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari haqida ma’lumot beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari qanday mazmunda? (<b>6-ilova</b>).</p>	<p><b>2.1.</b> O‘ylaydi, javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p><b>2.2.</b> Yozadi, savolga javob beradi.</p> <p><b>2.3.</b> Yozadi, savolga javob beradi.</p>
<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>(10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>Faol Tinglovchilar baholanadi (<b>2-ilova</b>).</p> <p>3.3 O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (<b>7-ilova</b>).</p>	<p>3.1. Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqnini yozib oladi.</p> <p>3.3. Javob yozadi.</p>

**1-ilova**

**Mavzu: Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan topshiriqlar,**

## **ularni nazorat qilish va baholash.**

### **R e j a**

1. O‘quvchilar bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berish.
2. Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan topshiriqlarning shakllari, nazorat turlari va baholash mezonlarini qo‘llash usullari.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma’lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

### **VIZUAL MATERIALLAR**

#### **O‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish.**

Tasviriy san’atdan o‘quvchilar faoliyatini o‘z vaqtida va muntazam nazorat qilib turish va baholash nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bolalar ancha vaqt va kuch sarflab bajaradilar, ularni talablar darajasiga yetkazishga harakat qiladilar. O‘qituvchi topshiriqni nazorat qilmasa bolalarning topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan ixloslari asta-sekin susayadi. Bora-bora ular topshiriqlarni butunlay bajarmay qo‘yadilar. Shunday ekan, o‘qituvchi topshiriqni o‘z vaqtida tekshirishi va uni jurnalda qayd qilib turishi lozim. Topshiriqlarni nazorat qilishning bir qator shakllari mavjud.

#### **Tasviriy san’atdan topshiriqlar**

Tasviriy san’atdan beriladigan topshiriqlari dars va darsdan tashqari vaqtarda amalga oshiriladi.

Sinfda bajariladigan topshiriqlar va uyda bajariladigan topshiriqlarga bo‘linadi.

**Sinfda bajariladigan topshiriqlar** - San’atshunoslik asoslari, kompozisiya, naturaga qarab rasm ishlash, borliqni idrok etish mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi.

**Uyda bajariladigan topshiriqlar** - San’atshunoslik asoslari mashg‘ulotlari bo‘yicha - san’at asarlari reproduksiyalarini to‘plash, san’atkorlar haqida kitoblar o‘qish, san’atkorlar haqida viktorina, krossvordlar yechish, Muzey, ko‘rgazma va san’at yodgorliklariga borish.

Kompozisiya bo‘yicha - sinfda ishlangan kompozisiyani davom ettirish, mavzu bo‘yicha yangi kompozisiya ishlash, mavzuga aloqador qoralama va ranglamalar ishlash, bajarilgan ishlarni ko‘rgazmaga tayyorlash.

Naturaga qarab rasm ishslash bo'yicha - qoralama, ranglama natyurmort va boshqa rasmlar ishslash, sangina, sous, pastel, ugol, retush bilan mashqlar bajarish.

Borliqni idrok etish bo'yicha - yil fasllari davomida tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish, yil fasllari haqida she'rlar yodlash, bahor, kuz faslidagi mehnatkashlarning mehnat jarayonlarini kuzatish.

### Топшириқларни назорат шакллари



1. Og'zaki so'rov. O'quvchilarning tasviriy amaliy, me'morchilik san'atlaridan назарий bilimlari (kompozisiya, yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va xaykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilish

imkonini beradi. Shuningdek, og‘zaki so‘rov o‘quvchilarni tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi.

2. Mashqlar. O‘quvchilarning qalam, mo‘yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko‘nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko‘proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozisiya mashhg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Tasviriy, ijodiy va mustaqil ishlar. O‘quvchilarni badiiy tafakkuri va qobiliyatlar, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko‘proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozisiyalarni bajarishda qo‘llaniladi.

4. Yozma (matnli) mustaqil ish. O‘quvchilar tomonidan olingen bilimlarni qanchalik o‘zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san’atning san’atshunoslik asoslari kursi bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quvchilar krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san’atdan insho va referatlar yozadilar.

5. Test sinovlari. O‘quvchilar tomonidan tasviriy san’atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallar, bolalar tomonidan rang nomlarini o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san’at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozisiya, san’atshunoslik asoslari) bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

6. Uy vazifasi. Sinfda o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga qarab ranglama va qoralamalar ishlash, mashqlarni bajarish, sinfda tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarak-atrofdagi ko‘rinish va hodisalarini kuzatish, sinf ishiga doir adabiyotlar o‘qish, muzey va ko‘rgazmalarga borish, sinfda o‘tilgan mavzular bo‘yicha insho, referatlar yozish, krossvord, chaynvordlar yechish, viktorina savollariga javob qaytarish, san’at asarlarining reproduksiyalari nusxalarini, illyustrasiya va rasmlarni to‘plash yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi.

Uy vazifalari tasviriy san’at mashhg‘ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo‘lib, u nafaqat yangi materiallarni o‘zlashtirish, balki o‘tilganlarni mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o‘stirishga xizmat qiladi.

## Nazorat turlari va baholash mezonlari.



### Декоратив композиция.

**1. Намунадан кўчирилган декоратив ишлар.** - тасвирни қоғозда жойлашуви; -ишини мустақил бажарилиш даражаси; -безак элементларининг шакли; -безак элементларининг ўлчами ва ўлчам нисбатлари; -безак элементларининг стилизацияси; -ранг ечими; -безак элементларининг шакли; -қалам ва мўйқалам билан ишлаш малакалари; -ишнинг тоза ва тартибли бажарилиши.

### **2. Ижодий ишланган декоратив композиция.**

-иши мустақил бажарилиш даражаси; -расмни қоғозда жойлашуви; -безак элементларининг ўлчам ва ўлчам нисбатлари; -безак элементларининг стилизацияси; -безак элементларининг шакли; -ранглар ечими; -ўқувчини ишга ижодий ёндошганлиги; -иши бажаришдаги бадиий-эстетик дид; -иш композицияси; -декоратив ишларнинг асосий воситаларидан саводли фойдаланиш (ритм, симметрия); -қалам ва мўйқалам билан ишлаш малакалари; -ишнинг тоза ва тартибли бажарилганлиги.

### **3. Ҳайкалтарошлик композицияси.**

-иши мустақил бажарилиши; -ҳайкални мавзуга мослиги; -ҳайкал композицияси; -иши бажаришдаги бадиий-эстетик дид; -ҳайкал бўлаклари ва уларнинг ўлчамлари ҳамда ўлчам нисбатлари; -ишдаги нарсаларнинг ҳажми; -ҳайкалтарошлик асбоблари билан ишлаш малакалари; -ишнинг тоза ва тартибли бўлиши.

**18-MAVZU. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH NAZARIYASI VA  
METODIKASIDAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR  
TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASINING MODELI**

<b>Vaqti – 2 soat</b>	<b>Tinglovchilar soni 20-25 nafar</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Vizual ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	1. Darsdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari. 2. Maktabda tasviriy va amaliy san'atdan to'garaklar. 3. Tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar.
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi.</b> Tasviriy san'at o'qitish nazariyasini va metodikasidan darsdan tashqari ishlar haqida ma'lumot berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Darsdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari haqida tushunchalar berish.</li> <li>- Maktabda tasviriy va amaliy san'atdan to'garaklar haqida ma'lumot berish.</li> <li>- Tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar haqida ma'lumot beriladi.</li> </ul>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> <p style="text-align: center;"><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Darsdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;</li> <li>- Maktabda tasviriy va amaliy san'atdan to'garaklar haqida ma'lumotga ega bo'ladi.</li> <li>- Tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar haqida ma'lumot oladi;</li> </ul>
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma'ruza, og'zaki bayon qilish, «Qanday» diagrammasi, «B\B\B» jadvali
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproyektor, ko'rgazmali plakatlar.
<b>O'qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishslash.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
<b>1-bosqich Kirish (10 min.)</b>	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. (2-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</p> <p>1.2. Yozib oladi.</p>
<b>2-bosqich. Asosiy (60 min.)</b>	<p><b>2.1.</b> Mavzu rejasining birinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. Darsdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari haqida tushunchalar beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Darsdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari qanday? <b>(3-ilova)</b>.</p> <p><b>2.2.</b> <i>O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda rejaning ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruzani bayon etishni davom etadi</i> <b>(4-ilova)</b>. Maktabda tasviriy va amaliy san’atdan to‘garaklar haqida Tinglovchilarga tushuncha beradi; Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tasviriy va amaliy san’atdan qanday to‘garaklar mavjud ? <b>(5-ilova)</b>.</p> <p><b>2.3.</b> Mavzu rejasining uchinchi punkti bo‘yicha ma’ruza kiladi. <b>(6-ilova)</b>. Tasviriy va amaliy san’atdan sinfdan tashqari tadbirlar haqida ma’lumot beradi. Ma’ruza bo‘yicha ”Qanday?” usulidan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi: Tasviriy va amaliy san’atdan sinfdan tashqari qanday tadbirlar mavjud ? <b>(6-ilova)</b>.</p>	<p>2.1. O‘ylaydi, javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Yozadi, savolga javob beradi.</p> <p>2.3. Yozadi, savolga javob beradi.</p>

<b>3-bosqich Yakuniy (10 min.)</b>	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va Tinglovchilar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan Tinglovchilarni rag'batlantiradi.</p> <p>Faol Tinglovchilar baholanadi.</p> <p>Uyga vazifa beriladi.</p> <p>3.3 O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p> <p>3.3. Javob yozadi.</p>
--	--	---

### 1-ilova.

#### **Mavzu: Tasviriy san'at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan darsdan tashqari ishlari.**

#### **R e j a**

**1.** Tasviriy san'at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari, tasviriy va amaliy san'atdan to‘garaklar to‘g‘risida umumiy ma'lumotlar berish.

**2.** Tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar o‘tkazishning usullari

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Tasviriy san'at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan sinfdan tashqari ishlari haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda Tinglovchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

#### **VIZUAL MATERIALLAR**

Tasviriy san'at o‘qitish nazariyasi va metodikasidan sinfdan tashqari ishlari umumta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida muhim o‘rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me’morchilik kabi san'at turlari bo‘yicha amalgalashuv, ko‘rgazma, tanlov, san'at kechalari kabi qator yo‘nalishlarda o‘tkaziladi va ular o‘quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va iste’dodni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga u yoshlarning badiiy va estetik fikr doirasini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

#### **Tasviriy va amaliy san'atdan to‘garaklar**

Tasviriy va amaliy san'atdan tashkil etiladigan **to‘garaklar** umumiy o‘rta ta’lim maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4 chinflar),

o‘rta (5-7 sinflar), katta (8-9 sinflar) guruhlardan tashkil topadi va ular rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, badiiy sopoldo‘zlik, shuningdek, me’morchilik, san’atshunoslik to‘garaklari hisoblanadi.

Tasviriy va amaliy san’at to‘garagi amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi. Tasviriy san’atdan amaliy ishlar bevosita, naturaga qarab rasm ishlash, kompozisiya, surat namunalarini ko‘chirish kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

Rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika to‘garaklari mashg‘ulotlarida kompozisiyalar ishlashga katta o‘rin beriladi. Bolalar tasviriy san’atni barcha janrlari (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, animal, portret, afsonaviy, marina) bo‘yicha mustaqil kompozisiya ishlash, tayyor san’at asarlari namunalaridan ko‘chirish bilan shug‘ullanadilar. Ular adabiy asarlarga illyustrasiyalar ishlash, badiiy bezak ishlariga doir topshiriqlarni ham bajaradilar.

Tasviriy va amaliy san’atdan nazariy bilimlar to‘garaklarning turiga qarab oddiy yoki murakkab mazmun va hajmda beriladi. Xususan:

1. **San’atshunoslik to‘garaklari** (Tasviriy san’atning alohida tur va janrlari. O‘zbekiston tasviriy san’ati. U yoki bu davr tasviriy san’ati). Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar bolalarga ancha keng va chuqurroq hajmda beriladi.

2. **Tasviriy san’at** (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) to‘garaklari. Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar o‘rtacha hajmda beriladi.

3. **Amaliy-bezak san’ati to‘garaklari.** Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar qisqartirilgan hajmda beriladi. Biroq, xalq amaliy san’ati tarixi uni nazariy asoslari, xalq ustalari, amaliy san’atda ishlatiladigan ish qurollari va jihozlar, materiallar, ish uslublari, xalq san’ati rivoj topgan markazlar, san’at va viloyat o‘lkashunoslik muzeylari, ulardagi eksponatlar haqidada keng ma’lumotlar berilishi talab etiladi.

Amaliy san’at mashg‘ulotlarida buyumning vazifasi, shakli, materialini hisobga olib, yo‘lsimon, kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak, doira, ko‘pburchak, namoyon shakllarida badiiy bezak ishlarini bajaradilar. Bu ishlar amaliy san’atning turiga qarab ham eskiz, ham bevosita buyum yuzasiga ishlanishi mumkin.

San’at tarixiga doir to‘garak mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘zbek milliy san’atining mustaqillik yillardagi taraqqiyoti, jahonga mashhur o‘zbek rassomlari va amaliy san’at ustalari, o‘zbek tasviriy va amaliy-bezak san’ati ustalarining yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlarini jahonning yirik va mashhur muzeylaridan o‘rin olganligi hamda o‘zbek xalqi bundan faxrlanishi haqida so‘zlab berishi lozim. Afrosiyob, Varaxsha, Ayrtom, Halchayon va boshqa joylarda yer ostidan topilgan shaharlar va uy devorlariga ishlangan devoriy rasmlar, shuningdek haykallarning foto nusqalarini namoyish etish va Sharq Uyg‘onish davrida Movarounnahr miniatyura san’ati, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari

tomonidan yaratilgan bahosiz asarlar, IX-XV asrlarda O‘zbekiston me’morchiligining noyob ishlari haqida ma’lumot berish bolalarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

### **Tasviriy va amaliy san’atdan sinfdan tashqari tadbirlar**

Tasviriy va amaliy san’atdan o‘tkaziladigan ***kechalar*** o‘quvchilarni estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u yoshlarni san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, badiiy fikr doirasini kengaytiradi. Kechalar o‘z mazmuniga ko‘ra bir qator san’at turlarini mujassam etadi. Xususan, unda tasviriy san’atdan tashqari, musiqa san’ati, adabiyot, xoreografiya san’ati, sirk san’ati, teatr san’atlari ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga unda maktab jamoasi, shuningdek, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari ishtirok etishi kechani katta ko‘tarinkilik bilan o‘tishiga imkon beradi, tashkilotchilarining tadbiriga mas’uliyatini oshiradi. Kechani o‘tkazganda maktabdagi musiqa, o‘yin, drama to‘garaklari a’zolarining hamkorligi yaxshi natijalar beradi.

To‘garak mashg‘ulotlarida tasviriy va amaliy san’atga oid ***suhbatlar***, ma’ruzalarga keng o‘rin beriladi va ularni to‘garak rahbari, to‘garak a’zolari bilan birlikda o‘tkazadi. Bunday tadbirlar mashg‘ulotlar bilan bog‘liq holda, ham mashg‘ulotdan tashqari vaqtarda ham mustaqil ravishda o‘tkazilishi mumkin. Ular to‘garak rahbari tomonidan u yoki bu mavzuni chuqurroq o‘rgatishni maqsad qilib qo‘yanida yoki mavzu bolalar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmay qolgani taqdirda ham tashkil etilishi mumkin.

Ular rassom, halq amaliy san’ati ustasining hayoti va ijodi, ma’lum bir davr san’ati, san’tdagи biron bir oqim, san’atning tur va janrlari, bironta mamlakat san’ati, tasviriy san’atda mehnat, sport, buyuk shaxslar, ekologiya, onalik va bolalik kabi mavzularga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin. Bunday ***suhbatlar*** mazmuni qiziqarli bo‘lishligi bilan bir qatorda u bolalarning faol ishtirokida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqli.

Maktablarda eng yaxshi ishlangan rasm, haykal, amaliy san’at namunasiga doir ishlar uchun ***tanlovlар*** bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, ularning faolligini oshiradi. Eng muhimi bolalarning ijodkorligiga keng yo‘l ochib beradi, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Tanlovlar faqat bolalarning ijodiy ishlari yuzasidan o‘tkaziladi. Ular tasviriy va amaliy san’atning barcha tur va janrlariga doir bo‘lishi mumkin. Tanlovlar bolalarni guruhlarga yoki yoshlariga qarab tashkil etiladi.

Tasviriy san’atdan ***viktorinalar*** tashkil etish bolalarni mustaqil ishlashga o‘rgatadi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. Bu tadbir o‘yin va musobaqa shaklida bo‘lganligi uchun unda bolalar katta qiziqish bilan ishtirok etadilar.

Viktorina san’at tarixi, uning nazariyasi (yorug‘soya, perspektiva, rangshunoslik) janrlari, rassom, haykaltarosh, amaliy san’at ustalarining hayoti va ijodi, rangshunoslik, rassom va ustalarning ish qurollari va materiallari, tasvirlash

texnikasi, tasviriylar va amaliy san'atda ishlataladigan atama va iboralar, ayrim mamlakat, o'z o'lkasining san'atiga doir bo'lishi mumkin.

Tasviriylar san'atdan **sayohatlar** muzeylarga, rassomlarning ustaxonalariga, haykaltaroshlik yodgorliklariga, ko'rgazmalarga tashkil etiladi. Maktablarda keng tarqalgan dasrdan tashqari ishlarning shakllaridan yana biri **ko'rgazmalardir**. Ko'rgazmalarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. Bolalarning ijodiy-tasviriylar va amaliy-bezak ishlari ko'rgazmasi.
2. Rassomlar va amaliy san'at ustalari asarlari reproduksiyalarining ko'rgazmasi.
3. Rassomlar va amaliy san'at ustalari asarlarining asl nusxalari ko'rgazmasi.

Ko'rgazmalarning qiziqarli shakllaridan biri **tasviriylar va amaliy san'at muzeysi** hisoblanadi. Bunday muzeylar rassom, usta va o'quvchilar tomonidan ishlangan ishlarning asl nusxalari asosida tashkil etiladi.

Respublika, viloyat, shahar, tuman miqyosidagi rassomlar, amaliy bezak san'ati ustalari bilan maktablarda **uchrashuvlar** o'tkazish o'quvchilarni san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday uchrashuvda rassomlar, ustalar o'zlarining ijodiy yo'llari, yaratgan asarlari, uning yaratish sirlari, kelajak rejalar haqida bolalarga so'zlab beradilar.

### **Tarmoq orqali mustaqil ta'lim soatlari mazmuni**

Modulga oid o'rganilgan materiallar asosida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalar mustaqil o'rganiladi. Shu asosida tihglovchi mashg'ulotlarda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning qo'llanilishi, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari, boshlang'ich sinf darslariga qo'yilgan zamonaviy talablarni mustaqil bajaradi.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar fanlar doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Dasturning axborot-metodik ta'minoti**

Bloklarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-vetodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslar, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantidagi manbalardan foydalaniildi.

### **O'qitish shakllari**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniildi:

- ma'ruzalar (ma'lumotlarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- tyutorlar orqali forum va chatlarda ishtirok etish (ta’lim sohasidagi huquqiy-meyyoriy asoslar bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon etish va mantiqiy xulosalar chiqarish).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. -T.:2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 7-noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”. -T.:2022.

### **Foydalanimadigan asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati.**

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari.

1. Abdirasilov S. “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent. Ilm-Ziyo, 2011.
2. Ro‘ziyev E.I., Ashirboyev A.O., “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi”. -Toshkent. Ilm-Ziyo 2010.
3. Abdirasilov S. “Rasm o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Iqtisod-moliya”, 2010.
4. RajabovP.K. “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi”. Toshkent. Musiqa 2008.
5. Abdirasilov S, N. Tolipov N. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. (amaliy mashg‘ulotlar). O‘quv qo‘llanma. - T.: «Aloqachi», 2007.
6. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: «Ilm-Ziyo», 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. AshirbayevA. “Chizmachilik”. Toshkent.; “Yangi nashr”, 2008.
2. Abdirasilov S., Boymetov V., Tolipov N. «Tasviriy san’at». - T.: Ilm-Ziyo 2006.
3. Abdirasilov S., N. Tolipov N. “Rangtasvir”. -T.: Bilim, 2005.
4. Boymetov B., Abdirasilov S. “Chizmatasvir”- T.: G‘.G‘ulom, 2004.
5. Raxmonov I.T. “Chizmachilikdan didaktik o‘yinlar”. - T., “O‘qituvchi”. 1992
6. Raxmonov I.T. “Chizmalarni chizish va o‘yish”. -T., “O‘qituvchi”. 1992.
7. Isayeva M.Sh. “Chizmachilikdan topshiriqlar”. T., “O‘qituvchi”. 1992.
8. [www.nbgf.intal.uz..](http://www.nbgf.intal.uz..)

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi: [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz), [www.multimedya.uz](http://www.multimedya.uz).
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
5. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giy.uz](http://www.giy.uz)
6. Ijtimoiy axborot ta’lim portalı: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [wtp://www.schol.edu.ru](http://www.schol.edu.ru) - Umumta’limportali (rustilida),
8. [wtp://www.alledu.ru](http://www.alledu.ru) - “Internetdanta’lim” portalı (rustilida),
9. [wtp://www.rostest.runnet.ru](http://www.rostest.runnet.ru) - Test olish markazi serveri (rustilida),
10. [wtp://www.albest.ru](http://www.albest.ru) - Internet resurslari elektron kutubxonasi (rus tilida),
11. <http://www.mathyne.narod.ru/> - Onlayn-darsliklar (rus tilida).